Dars jarayonida tarixiy materiallar va manbalardan (tarixiy hujjatlar, tarixiy ashyolar, rasmlar, xaritalar) foydalanish juda muhim va foydalidir. Bundan tashqari, tarix darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internetdan foydalanish o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga hissa qo'shibgina qolmay, ularning tarixiy tafakkur va o'rganish darajalarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. «Ta'lim taraqqiyoti», 3-maxsus son.-T.: «Sharq», 1999 y.
2. Tarix o'qitish metodikasi . Toshkent, 2005 yil
3. Тошев, С. (2020). Ўзбекистоннинг совет мустамлакачилиги даври тарихини ўрганишда турк тилидаги манбаларни ўрни. In Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари (pp. 121-127). .
4. E. Perrot, Effective Teaching. New York: Longman. (1982); B. Laar, R. Blatchford, D. Winkley, G. Badman, R. Howards, Effective Teaching. Oxford: National Primary Center. – P.108.
5. A. Harris, Teaching and Learning in the Effective School. Aldershot: Ashgate, 1999. –P.401.
6. R. Dunne, E.C. Wragg, a. g. e. s. 54 C. Kyriacou, a. g. e. s.45 ;. Laar, R. Blatchford, D. Winkley, G. Badman, R. Howards, - S. 14.

JISMONIY TARBIYA VA SPORT DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Mo'minjonov Umidjon Abdumutalipovich
Andijon viloyati Jalaquduq tumani 73- DIUM

Annotatsiya: Maqolada jismoniy tarbiya va sport darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning axamiyati, dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, jismoniy, ma'naviy va axloqiy sifatlarni shakllantirish bo'yicha ayrim tavsiyalar berilgan muxokama qilingan.

Kalit so'zlar: sport, pedagogik texnologiyalar, uslublar, mezonlar, amaliy darslar

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g'oyasi Respublika Konstitutsiyasida e'tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamiyatni barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko'tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o'rin egallashga yo'naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo'lishi eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, jismoniy, ma'naviy va axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog'liqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug' ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mustaqil O'zbekiston Respublikasining rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta'minlash yosh avlodni xar tomonlama komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog'liqdir.

O'qituvchilar o'qitish uslublarini mujassamlashtirgan holda, mashg'ulotlar o'tkazishga tayyorlanishi, turli o'quv qurollaridan samarali foydalanishi hamda o'quv rejasi va dasturlarini metodologiyasini ochib berishi lozim. Biroq, shuni unutmaslik lozimki, o'qitish va o'rgatish jarayonlarini boshqarish, mavjud o'quv vositalaridan samarali foydalanish va o'quv mashg'ulotarida o'quvchilarga imkon qadar manfaatli bo'lishini ta'minlash va shu kabi boshqa ko'pgina vazifalar o'qituvchining zimmasiga to'liq yuklatiladi. Fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish; o'qituvchi o'qitish va o'rgatish, shuningdek, mavjud imkoniyat va sharoitlardan unumli foydalanish uchun mas'ul shaxs hisoblanadi. Bu vazifani bajarish uchun o'qituvchi o'qitish jarayoni hamda o'qitiladigan fanlarning ilmiy va texnik jihatlarini to'liq bilishi lozim.

Bundan maqsad shuki, o'qitish uslubi shunday yo'lga qo'yilsinki, bunda o'quvchilar o'qitilayotgan fanni to'liq o'zlashtira olishsin.

O'qitish usullarining o'quvchilar talabiga mos kelishini aniqlashda o'qituvchi o'z dasturining quyidagi oltita asosiy tarkibiy qismini hisobga olishi zarur:

1. Rejalashtirish
2. Imkoniyat va sharoitlar
3. Uslublar
4. Faoliyatlar
5. Teskari aloqa
6. Nazorat

O'qitish uslubini aniqlash yo'llaridan biri bu yuqorida keltirilgan oltita omilning har biriga tegishli bo'lgan savollar ro'yxatini tuzishdir. Ta'kidlash joizki, har bir tarkibiy qism talablarining to'liq bajarilishini ta'minlash hamda unga amal qilish tanlangan o'qitish uslubining samaradorligini oshiradi.

Jismoniy tarbiya va sport darslarida o'qitish uslublarini mujassamlashtirgan holda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligini oshirish metodi va vositalari. Hozirgi kunda barcha pedagoglar singari jismoniy tarbiya o'qituvchilariga ham darslarni zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etish, darsga innovatsion yondashuvni, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishni dars davomida shakllantirish kabi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. I

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarni jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida, bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Интерактив (interfaol)-inglizcha so'z bo'lib, “interakt” “inter”-bu, o'zaro, “akt”-bu —harakat qilmoq - ma'nosini anglatadi. Umumlashtirganda esa —interaktiv (interfaol) —o'zaro harakat qilmoq ma'nosini anglatadi. noananaviy hamda interfaol dars orasidagi farqlar

1.O'quv rejadagi mavzularni o'qitishda, qaysi mavzular bo'yicha inter faol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur.

Bunda bir mavzu bo'yicha mashg'ulotning maqsadiga to'liq erishishni ta'minlaydigan interfaol yoki an'anaviy mashg'ulot turlaridan foydalanish ko'zda tutiladi.

O'quvchining o'z-o'zini boshqarishi natijasida o'quv jarayoni faollashadi. Jismoniy tarbiya va sport darslarida o'quvchining o'z xatti-harakatini o'zi nazorat qilishi, yo'l qo'ygan xatolarini o'zi aniqlashi va bartaraf etishi, mustaqil holda xulosalar chiqarishi, reproduktiv, qisman izlanuvchanlik va ijodiy topshiriqlarni

bajarishda ishtirok etishi , o‘quvchi faolligini oshiradi va uni amalga tadbiiq etilishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta’lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-o‘quvchilarning muloqot olib borish bo‘yicha ko‘nikma va malakalari rivojlanadi, o‘quvchilar orasida emotsional aloqalar o‘rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o‘z o‘rtoqlarining fikrini tinglashga o‘rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

- 1.Piraxunova F.N., Nazirov A.X. O‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo‘llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2008, 3-48 bet.
- 2.O‘zbekiston Respublikasida Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. “O‘zbekiston”, Toshkent, 1997 yil.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 16 oktyabrdagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim davlat standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan majlisi materiallaridan “O‘zbekiston ovozi” gazetasi, 2007 y 12 fevral.
- 5.Бордовская Н.В. Диалектика педагогического Исследования. –М.; 2001.
- 6.Селевко Г. Современные образовательные технологии: Учеб. пособ. –М. 1998 год

BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARIDA INNOVATSION VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARASI

Abdug'ofurova Iroda

*Kimyo International University in Tashkent
M.Sc.Theory and Methods of Primary education*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari, boshlang'ich sinflarda foydalanish mumkin bo'lgan innovatsion texnologiyalarning didaktik tamoyillari, dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish va boshlang'ich sinflarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, axborot texnologiyalari, rivojlantirish, shakllantirish, ta'lim texnologiyalari, o'quvchi ma'naviyati.

Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi. Ta'lim innovatsiyalari - ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondoshuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyadir. Ta'lim innovatsiyalari "innovatsion ta'lim" deb ham nomlanadi. "Innovatsion ta'lim" tushunchasi birinchi bor 1979-yilda "Rim klubi"da qo'llanilgan.

Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo'llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda. Bunday metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning o'qish motivlarini o'stiradi. Innovatsiya- yangilik kiritish, yaratishdir. Demak, an'anaviy ta'limdagi kabi bir xil shablonlar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiya demakdir. Ta'limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o'quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interaktiv metodlardan foydalanish ta'lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun avvalo darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur. Dars loyihasini tuzishda o'qituvchi o'zining ish shakllari va o'quvchilarning ko'nikmalarini egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim.

Axborot — kommunikatsion texnologiyalari barcha sohalar qatori ta'lim tizimiga ham izchillik bilan kirib kelmoqda. Jumladan, axborotlashtirilgan multimedialli ta'lim texnologiyalarini boshlang'ich ta'limga joriy etish orqali o'tiladigan fanlar mazmunini o'quvchilar ongiga to'liq va mukammal ravishda

singdirish, innovatsion vositalar bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari boshlang'ich ta'limda multimedia vositalaridan samarali foydalanishning o'ziga xos afzalliklari ham bor. Ularni quyidagicha ifodalash mumkin:

- ta'limda ko'rgazmalilik eng asosiy o'rinlardan birini egallaydi;
- o'quvchini izlanishga undaydi;
- o'quvchi ta'lim jarayonini bir vaqtning o'zida ko'radi, uni eshitadi, o'quvchilarga kengroq qamrovdagi va kattaroq hajmdagi materiallarni tezroq yetkazib beriladi;
- o'quvchi tafakkurini faollashtiradi;
- o'quvchi faoliyatining ijobiy motivini hosil qiladi;
- mashg'ulotlarni jonli va muloqotli tarzda olib borishga imkoniyat tug'iladi;
- ta'lim mazmuniga tegishli materiallarni kompyuter xotirasida saqlab ularni o'quvchilarga xohlagan vaqtda yetkazish imkoniyati bo'ladi;
- o'z-o'zini namoyish etish imkoniyatini beradi, ta'lim mazmunini yoritishda animatsiyalardan foydalanishning keng imkoniyatlari yaratiladi.

Shuning bilan birga, maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning va o'quvchi-yoshlarning ma'naviy tarbiyasi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib, shu orqali jamiyat ma'naviyatini shakllantirishga erishish mumkin. Shuningdek, boshlang'ich ta'limda axborot-kommunikatsion vositalaridan foydalanish jarayonida o'quvchi-yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirib, uni mustahkamlab borish lozim. Albatta bu ishlarni oiladan boshlash kerak, ya'ni oilada farzandlarimizdagi ma'naviy sifatlarni tarbiyalashdan boshlash zarur, chunki ularga berilgan tarbiya o'zlari bilan o'sib takomillashib boraveradi. Shuning uchun ham farzandlarimiz ma'naviyatini shakllantirish va uni yuksaltirishni avvalo oiladan, keyin esa bosqichma-bosqich uzluksiz ta'lim tizimida olib boriladi. Qolaversa, boshlang'ich ta'limda ona tili fani mazmuniga Vatan tuyg'usi, milliy g'urur, an'ana va milliy qadriyatlarimizni o'quvchilar ongiga singdirish hamda muomala madaniyati, ovqatlanish, kiyinish, saranjom-sarishtalik, odobli, mehnatsevar bo'lish kabi insoniy sifatlarni shakllantirib borish lozim.

O'quvchilarga ma'naviy tarbiya berishni quyidagi uch yo'nalishda olib borgan ma'qul:

O'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishga ijobiy ta'sirlar. O'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishga salbiy ta'sirlar va ularni bartaraf etish. O'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishning multimediali ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va undan amaliyotda keng foydalanishga erishish.

Shuningdek, multimedia usuli ta'lim samaradorligini oshirishda quyidagi ta'limiy va tarbiyaviy afzalliklarga ega: axborotning xilma-xilligi: matn, lavha, bezak, nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiyalardan foydalanishga erishiladi; "Inson — kompyuter" interaktiv muloqotning yangi darajasi ancha keng

bo'ladi va undan har tomonlama axborotlarni oladi; o'quvchilarga ta'lim olishda ijodiy munosabatni uyg'otadi va bu o'z navbatida ularga ishonchni shakllantiradi; o'quvchilar tafakkurini faollashtiradi; o'quv faoliyatining ijobiy motivini hosil qiladi; o'z-o'zini namoyish etish imkonini beradi; turli fikr va mulohazalarga diqqatni jalb qilishni o'rganadi; yangi fikr-mulohazani bildirishga va o'zlashtirishga ruhan tayyor bo'ladi. Bugungi kun o'quvchisi, ularning orzu-intilishi, qiziqishlari orasida ham katta farq bor. Shundan kelib chiqib hozirgi davr o'qituvchisi nafaqat mamlakatimizda, balki dunyo miqyosida ro'y berayotgan yangiliklardan vaqtida xabardor bo'lishi, o'z sohasiga doir zarur ilmiy yangiliklarni mehnat faoliyatiga tatbiq etishi, faqat darslikka tayanib qolmasdan, mavzu ko'lamini o'quvchilarga anglata bilishi, o'z ustida tinmay izlanishi, o'zida bor bilimlarni yanada kengaytira borishi lozim. Donishmandlarimiz aytganidek: «O'qitish — ikki barobar o'qish demakdir». Demak, har bir o'qituvchi-murabbiy bu o'gitga amal qilgan ekan, aslo kam bo'lmaydi. Eng katta farq esa hozirgi kun o'qituvchisining ish faoliyati innovatsion axborot texnologiya dunyosi, ilg'or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, jahon hamjamiyatida o'z o'rnini borligida. O'qituvchilik kasbining qator mas'uliyatlarini sanab o'tish mumkin. Bular qatoriga bola ruhiyatini o'rganish, undagi salbiy jihatlarga qarshi kurasha olish, o'quvchilari qalbida o'z faniga qiziqish uyg'otish barobarida Vatanga, oilaga, ota-onaga, do'stlariga nisbatan mehr-muhabbatli qila olish, har bir o'quvchining oilaviy sharoitini o'rganib, ota-onasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish kabilarni kiritish mumkin. Biz o'qituvchilar yosh avlod ongiga shakl beruvchi, ularni yuksak pog'onalariga olib chiquvchi sharafligini kasb egalari ekanligimizni ham unutmasligimiz kerak.

O'qituvchi xalqi shunday xalqi, u har bir o'quvchisini o'z farzandidek qabul qiladi, uning yutug'idan to'libtoshib faxrlanadi, iztirobga bab-baravar sherik bo'ladi. Ba'zi hollarda ayrim o'quvchilarning og'ir oilaviy sharoiti, ota-onasi qaramog'ida emasligi va bu uning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi, ba'zan bolalar tarbiyasi faqat maktabdagina nazorat ostida bo'lishi, bunday o'quvchilarning muntazam darslarda qatnashmasligi kabilarni o'qituvchilarimiz dilini xiralashtiradigan jihatlarni hisoblanadi, chunki o'qituvchi uchun bolaning begonasi bo'lmaydi, u barchasini o'z farzandidek ko'rib yashaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, ta'lim mazmunini boyitishga oid ishlarni muntazam ravishda olib borish lozim. O'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishda pedagogik omillarni ham ko'plab topsa bo'ladi. Ular ta'lim mazmunini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga mustahkam didaktik asos bo'la oladi va ularni ta'lim mazmuniga ustalik bilan kiritish esa, o'ziga xos innovatsion jarayon bo'lib, bunda o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayidaxmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. — T.: RTM, 2000. — 46 b.
2. G'ulomova M. X., Sobirova N. K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta'lim samaradorligini oshirish usullari // Innovatsiya o'quv jarayonida (tezislar to'plami). — T.: 2009. — 106 b.

KASB-HUNARGA OID FRAZEALOGIK BIRLIKLARNING TURLARI VA USLUBIY XUSUSIYATLARI

Kulmuamedova Lobar

Samarqand davlat chet tillar instituti 2-kurs magistir talabasi

Erdanova Zebo Abulkasimovna - Ilmiy maslahatchi

Annotation: Every concept is expressed in linguistic units-lexemes. Lexemes. On the other hand, are formed according to certain rules and are circulated by language speakers. This article talks about the formation of the department of phraseology as an independent science. The field of phraseology, which has its special place and weight in linguistics, has also reached a new level. Phraseological units are closely related to the related to the spiritual culture, customs, profession, place of residence and composition, aspiration, attitude to reality of the people who are considered to be the owners of the language.

Key words: frazeologik birlik, ibora, kommunikativlik, nominativlik,

Bugungi kunga kelib zamonaviy tilshunoslikda frazeologiya alohida o'ringa ega. Keyingi paytlarda bu soha rivojlandi va buning ustida ko'plab ilmiy ishlar olib borilmoqda. Frazeologiya boshqacha aytganda iboradir. Frazeologiyada iboralar, so'z uyushmalari, erkin va turg'un uyushmalar tuzilishi va ma'noviy jihatdan o'rganiladi.

Frazeologiya atamasi XVI asrning ikkinchi yarmida ingliz adabiyotshunosi va tarjimoni Neandr tamonidan birinchi bor qo'llanilgan. Jahon tilshunosligida frazeologiyaning u yoki bu jihatlari nazariy va amaliy o'rganilib, uning turli jihatlari bag'ishlangan monografik kuzatishlar, dissertatsiyalar, lug'atlar, ilmiy maqolalar yuzaga keldi. Frazeologizmlarni o'rganishning xilma-xil metodlari ham shakllandi. Bu esa tadqiqotlarni yanada jadallashtiradi, ularni ilmiy-amaliy va tizimli o'rganishga imkoniyat yaratadi. Frazeologiya atamasini tilshunoslikda birinchi bo'lib Sharl Balli tomonidan qo'llanilgan ammo u stilistikaning bir bo'limi sifatida o'rganilgan.

Frazeologiya tilshunoslikning keyingi taraqqiyotida tez rivojlangan sohalardan biridir. Rus va ingliz tilshunosligida frazeologiya ancha ilgari o'rganila boshlangan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida bu soha sistemali ravishda o'rganila boshlanganini o'tgan asrning 40-50- yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda Sh.Raxmatullayev (1969), G.A.Bayramov (1970), G.X.Axunzyakov (1974), V.G.Uraksin (1975), L.K.Bayramova (1983), M.F.Chernov (1986) larning doktorlik dissertatsiyalari frazeologizmlar tadqiqiga bag'ishlangan.

Tilda bajarilgan funksiyalar bo'yicha ingliz va o'zbek tillarining frazeologik birliklari ikkita katta guruhga bo'linadi: kommunikativ funksiyaga ega bo'lgan va bo'lmagan frazeologizmlar. Shunday qilib kommunikativ funksiyaga ega bo'lgan

frazeologik birliklar ikkiga kommunikativ va nominativlilarga bo'linadi. Ingliz va o'zbek tillarida kasbga oid frazeologik birliklarning nutqiy faolligini aniqlash uchun ingliz tilining eng ko'p tarqalgan shaxs oti komponenti bilan yasalgan 24 ta frazeologik birliklari tahlil qilinadi:

1. Baker: to spell the baker; baker's dozen; the butcher, the baker, the candlestick maker; pull devil pull baker – nonvoy
2. Builder: Jerry – builder – quruvchi
3. Busman: busman's holiday – avtobuschi
4. Butcher: the butcher, the baker, the candlestick maker; butcher's bill, butcher's meat- qassob
5. Carpenter; such carpenters such chips- duradgor
6. Cobbler : shoemaker: a cobbler must stick to his last, the shoemaker's wife is the worst shod; shoemaker's stock – etikdo'z
7. Cook : head cook and bottle washer; son of the sea cook; too many cooks spoil the broth; every cook praises his own broth; God sends us meat and the devil sends cooks; cold cook – oshpaz
- 72
8. Driver: back-seat driver - haydovchi
9. Fisher: the great fisher of souls - baliqchi
10. Hatter: mad as a hatter – telpakdo'z
11. Hewer: hewers of wood, drawers of water – daraxt kesuvchi
12. Hunter: lion hunter; fortune hunter - ovchi
13. Glazier: Is your father a glazier? –shisha kesuvchi
14. Labourer: the labourer is worthy of his fire; labourers in the vineyard - mehnatkash
15. Navvy: to work like a navvy - harbiy
16. Nurse: dry nurse; wet nurse- hamshira
17. Potter: clay in the hands of the potter - kulol
18. Printer: printer's devil – harf teruvchi
19. Shepherd: sheep without a shepherd; shepherd's pie; shepherd's plaid – cho'pon
20. Tailor: the tailor makes the man; tailor's dummy; the devil among the tailors; the three tailors of Tooley Street; Tom Tailor; merchant tailor - tikuvchi
21. Tiller: tillers of soil – yer haydovchi
22. Tinker: not to care a tinker's curse; to swear like a tinker; tinker, tailor, soldier, sailor- misgar
23. Worker: white collar worker, blue collar worker - ishchi

24. Workman: a bad workman quarrels with his tools; as is the workman so is the work - xizmatchi

O'zbek tilidagi kasbga oid frazeologik birliklar:

1. Bo'zchining mokisidek qatnamoq(tez harakat)

Qudasi ham uning ishxonasiga bo'zchining mokisidek qatnaydigan bo'lib qoldi,
Ashirmat (A. Qahhor)

2. Ovchining tozisi bo'lmoq(yugurdak)

Salimboy shu kunlarda ovchining tozisi bo'lib qolgan. (M. Murod)

3. Oshpazning kapkiri (har ishga aralashmoq)

Har ishga oshpazning kapkiri bo'lavermang - dedi ammasi. (S. Abduqahhor)

4. Qassobga go'sht qayg'usi (manfaatdorlik)

Qassobga go'sht echkiga jon qayg'usi deganlari rost ekan. (M. Murod)

5. Kosagardan bir puf (sirini yashirmoq)

Xalqimizda kosagardan bir puf degan naql bor. Siz ham bo'sh kelmang, do'stim.
(A. Muxtor)

6. Cho'ponning cho'lig'i (yugurdak)

Bunday ishing yaxshi emas, cho'ponga cho'liqlik senga yarashmaydi. (S. Ahmad)

7. Karnaychidan bir puf (biror narsa haqida xabar bermoq)

Karnaychidan bir puf deb, yuribsizmi? (O. Salom)

Kasbga oid (nominativ) frazeologik birliklarning ayrim semantik jihatlari. Tadqiqot qilinayotgan nominativ frazeologik birliklar keng semantik hajmga ega. Ular predmet, hodisa va holatlarni belgilaydi. Kasbga oid frazeologik birliklarning ko'pchiligi inson va inson mehnat faoliyati bilan bog'langan tushunchalarni ifodalaydi. Demak ular quyidagilar:

a) Inson tabiatining tavsifini ifodolovchi frazeologik birliklar:

Ingliz tilida:

Tailor's dummy – boy

Clay in the hands of the potter – tez ta'sirga beriladigan odam

Mad as a hatter – jinni

Fortune hunter – boy kelin axtaradigan odam

Lion hunter – mashhurlik axtaruvchi

O'zbek tilida:

ammanning buzog'i- landovur

pixini yorgan – puxta

aravani quruq olib qochish – va'daboz

yuzi shuvut – behayo

b) Biror hodisa yoki holatga inson munosabatini bildiruvchi frazeologik birliklar:

Not to care a tinker's curse – e'tiborsiz bo'lmoq, tupurmoq

c) Inson mehnat faoliyatini ifodolovchi frazeologik birliklar:

Ingliz tilida:

Tillers of soil – qishloq xo'jaligi ishchilari

Dry nurse – “ enaga” boshqalarga qaraydigan odam

Wet nurse – boquvchi

Hewers of wood, drawers of water – qora ishchilar

White collar worker – (amer.)- xizmatchi

Merchant tailor – o'z materialidan ko'ylak tikadigan tikuvchi

Cold cook – go'rkov

The butcher, the baker, the candlestick maker- har xil soha vakillari

O'zbek tilida:

Enagalik qilmoq – yalinmoq

Qul bo'lmoq – xizmatkor

v) Odamlar guruhining terma ahamiyatini ifodolovchi frazeologik birliklar:

sheep that have no shepherd – tartibsiz guruh

the devil among the tailors – jamoa jangi

tinker, tailor, soldier, sailor – turli soha namoyondalari

the three tailors of Tooley Street – o'zlarini xalq nomidan vakil deb

hisoblovchi katta bo'lmagan guruh a'zolari

f) Inson xulq atvorini ko'rsatuvchi frazeologik birliklar:

Ingliz tilida:

Back – seat driver – o'zining maslahatlari bilan haydovchini chalg'itadigan passajir

O'zbek tilida:

Boshiga ko'tarmoq - to'polon qilmoq

Ishiga aralashmoq – xalaqit bermoq

g) Kiyim-boshni ifodolovchi frazeologik birliklar:

Shoemaker stock – tor batinkalar

Shepherd's plaid –

h) Yegulik yoki oziq-ovqat komponentli frazeologik birliklar:

Shepherd's pie – kartoshka va go'shtdan qilingan pirog

Butcher's meat- go'sht

i) Ochlik sezgisi yoki ochko'zlikni bildiruvchi frazeologik birliklar:

Hungry as a hunter – bo'riday och

j) Har xil tushunchalarni ifodolovchi frazeologik birliklar:

Ingliz tilida:

The great fisher of souls – shayton

Baker's dozen – shayton dyujini

Butcher's bill – jangda vafot etganlar ro'yhati

Busman's holiday – bayram kunlaridagi ish

O'zbek tilida:

Kovushini to'g'rilamoq – haydash

Och bo'ri – tashna

Oyoq cho'zmoq – olamdan ko'z yummoq

Frazeologiya (ideomatika) esa ko'proq insonning ruhiyati, kishilar o'rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy etnik baholarini ifoda etadi. Dunyoda frazeologizimlar mavjud bo'lmagan tilning o'zi yo'q. Frazeologiyani o'rganish o'ziga xos uslubni talab etadi, shuningdek, boshqa bir qator tilshunoslik fanlari leksikologiya, grammatika, stilistika, fonetika, tarix, mantiq va mamlakatshunoslik fanlari ma'lumotlarida tayangan holda o'rganishni taqazo etadi. Uning murakkabligi ham shundadir. "Frazeologizm so'zdan ko'ra kengroq tushuncha. Uning tuzulishiga singish uchun frazeologizimni tashkil etuvchi komponentlar, birliklarning tuzilishi va ma'nosini tahlil qilish kerak", -deb yozadi afg'on tilidagi fe'l frazeologizimlarni semantic-struktur xususiyatlarini tadqiq etgan olim-A.G.G'aniyev.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev A. Frazeologizimlarning expressivlik xususiyati.-T.:O'TA 1976. 5-son
2. Амосова Н. Н. Основы английской фразеологии. – М. 1963.-С.46-49.
3. Antrushina G.V. English Lexicology. – М. 1985.
4. Jann Huizenga "Stories and idioms for real life" Oxford University Press.2000.
5. Raxmatullayev Sh. Frazeologik birliklarning asosiy ma'no turlari. – T.: Akadem nashr. 1985.

THE DIFFICULTIES OF LITERARY TRANSLATION AND ITS MAIN PRINCIPLES

Akbarova Nigina Akbar qizi
Student of Master Degree in SamSIFL

Abstract: In this article the challenges of literary translation and its requires observed and the important principles which belong to in literary translations are also covered. The principles of literary translation are expressed.

Key words: literary translation, principles, character, challenges, literature, requires

Literary translation plays an integral role in helping authors reach their audiences from different parts of the world. And also Literary text - the text of prose, poetry, drama and journalistic works. It is distinguished from other texts by its imagery and impressiveness. A literary text is an example of art. Sadly, regarded as one of the most challenging translation tasks. Even the most experienced linguists make mistakes when translating books sometimes.

Translating Without Changing The Original Tones Of the Author While business translation requires high accuracy and some changes in layout, formats, colors. Sometimes, the name of a famous person or character in novels or poems is used as a personality adjective. Wordplay or tongue twisters are no doubt a real headache for any translators while working on a literary translation task. It requires more time to translate than anything else.

The use of slang or dialects in novels or poems is no stranger to readers, but it's also a challenge for translators when dealing with a literary translation project.

How can they translate these words into a new language while retaining the characters' unique talking styles? translation requires translators to fundamentally understand the literary text and be familiar with the creator's life, life background, social form, national attributes, and social (4;1) contradictions at that time in order to effectively understand the meaning of special sentences, symbolic sentences, You must translate the meaning of what is being said, rather than do it word-for-word. This is because languages are not just different words(1;128)
1. Different languages also have different grammar, different word orders, sometimes even words for which other languages do not have any equivalents.

The principles of translation that Translation is an artistic, creative reflection of the original should be a "portrait"

2. The translation must be in accordance with the original in all respects - perfect and should become a phenomenon of national literature.

3. Fully reflect the national form and spirit of the original in the native language delivery should be requested.

4. In addition to the fact that the translator knows the original and translation language, and has the talent to translate, not only the original copy, but the life illuminated in it, not the literal language, but "behind the text" it is required to know what is described.

5. Not only the ideological content, but also the aesthetic meaning of the work also required to achieve translation re-creation. The meaning of this is original the reader of the translation gets the same pleasure and impression as the reader of the copy need

6. Translation is not imitation, copying or competition creative re-creation consists of:

- don't say words with words, but give thoughts with thoughts;
- maintaining the grammatical structure of the work;
- re-creation of the writer's style;
- giving an image with an image;
- maintaining unity of form and content, etc

7. Each literary genre has its own rules that the translator must follow there are requirements (2;117).In addition, each translator has his own principles of translation will be. This is his attitude to translation and the laws of translation it depends on how aware it is.and also The translation must give the words/ideas of the original That's understandable and commonly applied taking into account the linguistic and cultural differences and communicational stereotypes.

By reading the idea that lies behind these words we lose something important, namely the clear humorous effect and the hint that time is our enemy which especially true in some particular situations.

Translation should possess or reflect the style of the translation/original

Style is the essential characteristic of every piece of writing, the outcome of the person's emotions. Style reflects the specific cast of the author's minds. Individual style is important not only in poetry, dramatic or emotive prose, it's the components of all kinds of writing and everyday talk. The author's style determines his choice of words, the translator is often compelled to make a choice between alternatives.(3;2)

The choice he makes can't but be influenced by his personality can't but reflect his own style. It's a linguistic fingerprint by which an author can be identified even if there is no inclusion of his name. It's not only individuals that have their personal style. One may say that languages also possess the style of their own.A translation should read as a contemporary of the original/ the author.

The list of used literature

1. Yosh tarjimashunos, V. "Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik" va "Sinxron tarjima" mutaxassisliklari magistrantlari Toshkent 2020
- 2."Tarjima nazaryasi " ERGASH OCHILOV NILUFAR XODJAYEVA
- 3.<http://qutranslation.weebly.com/principles-of-translation.html>
- 4.<https://gtelocalize.com/literary-translation-and-non-literary-translation/>

BIOLOGIYA FANINING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQADORLIGI

*Sevara Shomuratova Bekberganovna
Ròzmatova Zaynabjon Yuldashevna
Atajanov Otajon Yòldoshevich*

Xorazm viloyati UrDU akademik litseyi biologiya fani

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya fanini boshqa fanlar bilan bog'liqlik jihatlari va fanlarni bog'lab o'qitishning pedagogik asoslari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: aniq fanlar, madaniy fanlar, ijtimoiy-gumanitar fanlar

Abstract: This article discusses the relationship between biology and other disciplines and the pedagogical foundations of interdisciplinary teaching.

Keywords: exact sciences, cultural sciences, social sciences

Kirish: Biologiya - tirik tabiat haqidagi fanlar majmuasi. Biologiya hayotning barcha ko'rinishlari: tirik organizmlar va tabiiy jamoalarning tuzilishi va funksiyasini, tirik mavjudotlarning kelib chiqishi va tarqalishi, ularning bir-biri va tirik tabiat bilan o'zaro bog'lanishini o'rganadi. Biologiya fanlari sistemasi. Biologiya bir necha fanlardan tarkib topgan. Tadqiqot ob'yektiga binoan Biologiya botanika (o'simliklarni o'rganadigan fan), zoologiya (hayvonlarni o'rganadigan fan), odam anatomiyasi va fiziologiyasi (odam organizmining tuzilishi va funksiyasini o'rganadigan fan), mikrobiologiya (mikroorganizmlarni o'rganadigan fan) va gidrobiologiya (suvda yashovchi organizmlar haqidagi fan)larga bo'linadi. Bu fanlar o'z navbatida birmuncha kichikroq tarmoklarga ajratiladi. Shu bilan birga Biologiya fanlarining bir-biri bilan va boshqa fanlar bilan qo'shilib ketishi tufayli bir qancha kompleks fanlar shakllangan (mas, sitogenetika, sitoembriologiya, ekologik genetika, ekologik fiziologiya). Biologiya fanlarini tadqiqot metodlariga binoan ham alohida fanlarga ajratish mumkin. Organizmlarning tarqalishini biogeografiya, to'qima va xujayralar tarkibini biokimyoviy, fizik jarayonlar va metodlarni biofizika o'rganadi. O'z navbatida bu fanlarni ham tekshirish ob'yektlariga binoan alohida fanlarga ajratish mumkin (mas, o'simliklar biokimyosi, hayvonlar biokimyosi). Biokimyoviy va biofizik metodlar ko'pincha o'zaro qo'shilib yoki boshqa fanlar bilan birgalikda yangi fanlarni hosil qiladi (mas, radiatsiyey biokimyoviy, radiobiologiya). Biologik tadqiqotlardan oliigan natijalarni taxlil qilish va umumlashtirishda biometriya, ya'ni biologik mat. katta ahamiyatga ega. Tirik organizmlar tuzilishini o'rganish darajasiga binoan ham bir qancha fanlar shakllangan (mas, molekulyar biologiya, gistologiya, anatomiya, ekologiya va boshqalar). Biologiyaning bevosita amaliyot bilan bog'langan masalalarini parazitologiya, gelmintologiya, immunologiya, bionika, kosmik biologiya kabi fanlar o'rganadi. Biologik ta'lim maktab o'quvchilarning umumiy tabiatshunoslik ta'limining

muhim qismidir. Biologiyani o'qitishda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish o'quvchilar tomonidan yetakchi g'oyaviy g'oyalarni o'zlashtirishga asoslanadi. Biologiya fanining yetakchi g'oyalari-organik dunyo evolutsiyasi g'oyalari, tirik tabiatni ko'p darajali tashkil etish, tuzilish va funksiyalarining o'zaro bog'liqligi, biologik tizimlarning tabiiy muhit bilan aloqasi, biologik tizimlarning yaxlitligi va o'zini o'zi boshqarish, nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik-biologiya bo'yicha maktab kursining mazmunini, tuzilishini, asosiy tushunchalarni rivojlantirish ketma-ketligini belgilaydi. Shu bilan birga biologiya fanining birgalikda o'rganiladigan tarix, fizika, kimyo, geografiya fanlari o'quvchilarga moddiy dunyoning birligi va rivojlanishini ko'rsatadi.

Biologiya va fizika o'rtasidagi fanlararo aloqadorligi: Keyingi yillarda fizika fanida erishilgan yutuqlar, jumladan, yadro energiyasi, raketosozlik, yarim o'tkazuvchanlik texnikasi va boshqa fanlarning rivoji hamda ularda yangi kashfiyotlar yaratilishi boshqa fanlar, masalan, biologiya fani rivojiga salmoqli ta'sir ko'rsatgan, jumladan optik va elektron mikroskoplar kashf etilishi ham. Biologiya fani dunyoning tabiiy fizik asosini sezilarli darajada to'ldirib turadi va o'zgartiradi, uning fizikaviy jarayonlarning xususiyatlari to'g'risida umumlashtirilgan bilimlarni kiritadi. Bizni o'rab turgan zaminda har qanday o'zgarishlar yoki hodisalar yuz beradi. Mikroskoplar orqali tirik organizmlarning hujayraviy tuzilishi, hujayrada sodir bo'ladigan murakkab jarayonlarni tadqiq qilish imkoni yaratildi. Mikroskop natijasida tirik organizmlar irsiyatining tabiati, irsiyatning moddiy asosi bo'lgan DNK va RNKlarning o'ziga xos xususiyatlari, vazifalari, belgilarining paydo bo'lishidagi rolini aniqlash mumkin bo'ldi. Fizikada mexanik, issiqlik, elektr va yorug'lik hodisalari o'rganiladi. Ushbu hodisalarning barchasi jismoniy deb nomlanadi. Jismoniy jarayonlar va hodisalar tirik organizmlarda sodir bo'ladi. Zoologiyada fizika bo'yicha bilimlar yordamida ular quruqlikdagi hayvonlar va suvdagi baliqlarning harakati qanday sodir bo'lishini, har xil hayvonlar tovushlarni qanday chiqarishi va idrok etishi, ularning ko'rish organlari qanday joylashtirilganligi va boshqa ko'p narsalarni tushuntiradi.

Biologiya va kimyo o'rtasidagi fanlararo aloqadorligi: Kimyo tabiiy fanlarga tegishli. U moddalarning tarkibini, tuzilishini, xossalari va transformatsiyalarini hamda shu transformatsiyalarga hamroh bo'ladigan hodisalarni o'rganadi. Kimyo, fizika va biologiya bilan chambarchas bog'liqdir. Kimyo va biologiya o'rtasida shakllangan fan-biokimyo, bioanorganik ba bioorganik kimyo. Tirik organizmlarda kimyoviy jarayonlar, moddalar tarkibi va boshqalar o'rganiladi. Kislotalar, katalizatorlar, ishqoriy va neytral muhitlar haqida bilimlar yordamida fermentlar o'rganiladi. O'pka va to'qima gazlari almashinuvi va qonni tashish funksiyasi oksidlanish haqidagi bilimlarga asoslanib o'rganiladi. Shu bilan birga, hujayraning kimyoviy tarkibi, anorganik va organik moddalarni aniqlash, oqsil, uglevod, lipidlarning o'ziga xos xususiyatlari, tarkibi, molekulyar tuzilishi, ularning hujayrada bajariladigan

funksiyalarini aniqlash, modda va energiyaning saqlanish qonuni esa hujayrada modda va energiya almashinuvi tadqiq etishga zamin yaratdi.

Biologiya va matematika o'rtasidagi fanlararo aloqadorligi: Maktab darsliklarida biologiya fanidan berilib boriladigan hisob-kitob usulida yechiladigan masalalarni xal etishda o'quvchilarga matematika fanida o'zlashtirgan bilimlari juda kerak bo'ladi, ayniqsa genetikaga doir masalalarni yechishda matematik bilimlari yetarli bo'lmasa, o'quvchi buning uddasidan chiqmaydi.

Biologiya va boshqa fanlar o'rtasidagi fanlararo aloqadorligi: Ijtimoiy texnika va qishloq xo'jaligi fanlari bilan aloqalarga tayanib, biologiya "tabiat-inson", "tabiat-jamiyat-mehnat" munosabatlarini ochib beradi. Biologiya o'qitishda fanlararo aloqalar ilmiy, texnik va ijtimoiy taraqqiyot jarayonida rivojlanib boradigan ilmiy o'zaro aloqalarni, fanning ijtimoiy ongning boshqa shakllari va amaliyot bilan aloqalarini aks ettirish uchun mo'ljallangan.

Qo'shni fanlarga doir materiallardan biologiya darslarida foydalanish fanlararo uzviy aloqadorlikni yanada mustahkamlaydi. Fanlararo aloqadorlik o'quv mavzulari mazmunini har tomonlama, atroflicha ochib berish uchun zarurdir. Biologiya fanining muhim g'oyalarini ochib berishda ko'mak beradigan, ular bilan kuchli darajada bog'langan fanlarning asosiy mazmuniga o'quvchilarni e'tiborini qaratish lozim. Fanlarning bir-biriga bog'liqlik darajalarini, shuningdek, bu fanlarda bo'layotgan o'zgarishlar, yangi tadqiqot natijalari, yangilanishlardan xabardor bo'lib borish hozirgi zamon o'qituvchisiga qo'yilgan talab bo'lib, u dars saviyasi, mavzu mazmunining o'quvchilar ongiga singdirilishi va uning beradigan samarasining oshishida asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Dars mavzusiga ko'ra metod va usullarni to'g'ri tanlash, shuningdek, ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish bu metodlarning to'g'ri tanlanganligi va mavzuni yoritishdagi o'rnini o'qituvchi to'g'ri belgilashi kerak. Biologiya fanida fanlararo bog'lanish texnologiyasi g'oyalarini akademik litsey va kasb-hunar kollejidagi boshqa o'quv predmetlarini o'qitishda va ta'limning boshqa bosqichlarida ham qo'llash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. " XXI asr pedagogikasining dolzarb vazifalari" Xalq ta'limi,2007- yil
2. D.M.Raxmonova Qarshi davlat universiteti. Zamonaviy boshlang'ich va pedagogik ta'lim: nazariy va amaliy innovatsion ta'lim tadqiqolar. Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi: Fanlararo izchillik va aloqadorlik o'quvchi kognitiv jarayonlari taraqqiyotida muhim omil. 2020 yil, aprel.
3. Ilm-fan hayoti. -M.: Ilm, 1973

BOSHLANG`ICH SINFLARDA SAVOD O`RGATISH METODIKASINING O`QITILISHI

*Ospanbaeva Aynura Allayar qizi
Shabatova Rabig'a Janasbay-qizi*

*Nukus davlat pedagogika instituti
Boshlang`ich ta'lim yo`nalishi 3-kurs talabalari*

Salieva Aygul Quatbay qizi

*Nukus davlat pedagogika instituti
Boshlang`ich ta'lim yo`nalishi 4-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada savod o'rgatish, uning maqsad va vazifalari, savod o'rgatish metodikasining tarixi, shuningdek, savod o'rgatish metodlari, o'qish va yozish nutq ko'nikmalari, o'qish va yozishga o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari ahamiyati haqida so'z etilgan.

Kalit so'zlar: o'qish malakasi, "Alifbe", tovush, undosh tovush, bo'g'inga bo'lish, o'qish, yozish, savod o'rgatish, bo'g'in, analitik-sintetik tovush metodi.

Kasblar ichida eng ulug` kasblardan biri – bu o`qituvchilik. Dunyoda qanday ulug` insonlar, buyuk-buyuk kashfiyotchilar, hammaga tanilgan mashhur olim-u, yozuvchilar, qanday inson bo'lishidan qat'iy nazar, barchasi ustoz qo'lidan tarbiyalanib chiqqan. Katta-katta muvaffaqiyatlarga erishishlarida ham ustozning roli ahamiyatli hisoblanadi. Shuning uchun ham yurtimizda bu kasb egalariga bo'lgan hurmat-e'tibor yanada kuchaytirilmoqda. Shular qatori biz, bo'lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilarining ham kelgusi yosh avlodning kelajakda qanday inson bo'lib yetishishida alohida e'tirof etiladi. O`qituvchi bolalarga bilim berishdan avval o`zi har taraflama bilimli, o`z fanini chuqur biladigan mukammal inson bo'lishi zarur. Bu haqida Jaloliddin Rumi shunday degandi: "O`qituvchi bilimli, aqlli, adolatli, o`zida barcha yuqori fazilatlarni jamlay olgan bo'lishi kerak. O`zini nomunosib tutgan inson hechqachon bolalarga bilim va odob bera olmaydi". Haqiqatdan ham, o`qituvchi o`zida yo`q bilimni, tarbiyani hechqachon o`zi o`qitayotgan o`quvchilariga bera olmaydi. Shuning uchun ham o`qituvchi kasbini tanlagan har bir inson o`qituvchilik kasbiga mos bo'lishi va o`z fanini mukammal bilmog`i darkor.

Shuningdek, boshlang`ich sinflarda o`tilayotgan har bir fanning o`z o`rni bor. Shular qatori ona tili va o`qish savodxonligi fanining ham o`tilishi juda ahamiyatli. Chunki, bu fan orqali o`quvchilar o`qishni, yozishni, fikrlashni, nutqini ravon qilishini o`rganib boradi. Maktabda o'qitish elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi. "Alifbe"ga asoslangan holda qisqa muddatda o'quvchilar o'qish, yozishga o'rgatiladi, so'ng o'qish va yozish ko'nikmasi takomillashtiriladi, bora-bora malakaga

aylantiriladi. O'qish va yozish malakasi nutqqa oid malaka. O'qish va yozish malakasi nutq faoliyatining boshqa turlari bilan ham bog'liq. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha marta takrorlanishi mumkin. O'qituvchi savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarga tovushlar haqida ma'lumot berishda o'zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olishi lozim.

Savod o'rgatish analitik-sintetik tovush metodida olib boriladi. So'z bo'g'inga ajratiladi, bo'g'indan kerakli - o'rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o'rganilgan harf bilan sintezlanadi.

Hozirgi qoraqalpoq tili unililar sistemasi: a, á o, ó, u, ú, e, ı, i. Savod o'rgatishda tovush-harf bilan tanishtirish unilardan boshlanadi. Qoraqalpoq tilida 25 undosh tovush bor. Shulardan 3 tasi harf birikmasi. Undoshlarni o'rgatishda ham muayyan tartibga, talabga asoslanadi.

Alifbo davri sonor - ovoqli (ovozdor) tovushlarni o'rgatishdan boshlanadi. Harf birikmalarini o'rgatishdagi qiyinchilik hisobga olingan holda ular alifbe davrining oxirrog'ida o'rganiladi. Shuningdek, savod o'rgatish jarayonida harfning 4 xil varianti (bosma, yozma, bosh va kichik)ning ishlatilishi o'rgatiladi.

O'quvchilarni o'qishga o'rgatish bo'g'in asosida olib boriladi. O'qishning dastlabki bosqichida orfografik o'qishdan foydalanilsa sekin-asta orfoepik o'qish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bo'g'inlab o'qishga o'rgatish uchun so'zni bo'g'inga bo'lish, bo'g'in hosil qiluvchi tovushni aniqlash, ochiq-yopiq bo'g'inlarni farqlashga o'rgatish muhim sanaladi.

O'qish ham yozish ham murakkab nutq faoliyati. U kichik yoshdagi o'quvchidan iroda, aql, hatto jismoniy harakatni ham talab qiladi.

Kichik yoshdagi o'quvchini o'qishga o'rgatishda quyidagilar kuzatiladi:

1. Bola o'qish paytida bitta harfni ko'radi, uni bilish uchun oldingi ko'z oldiga keltirilgan rasmlarni yo boshqa harflarni eslaydi, esga tushirgach, uni aytishga oshiqadi, ammo o'qituvchi aytishga yo'l qo'ymaydi, ikkinchi harfni eslab qo'shguncha birinchisi esdan ko'tariladi, yoki ularni qo'shib bo'g'in, bo'g'indan so'z hosil qilguncha o'qish jarayoni sustlashadi.

2. Ko'pincha bola o'qiyotgan qatorni yo'qotib qo'yadi, harfni, bo'g'inni, so'zni qayta o'qishga to'g'ri keladi. O'quvchining diqqati kengaygan sari bo'g'in va so'zni butunicha idrok eta boshlaydi.

3. O'qishni endi o'rganayotgan bola o'qiyotgan matn mazmunini o'zlashtirmaydi, chunki so'zni qanday o'qishga kuch beradi-da, so'z ma'nosiga e'tibor bermaydi. Darslikdagi rasmlar, o'qituvchining savollari, ko'rgazmali qurollar ongli o'qishlarini ta'minlaydi.

4. Tajribasiz kitobxon so'zni birinchi bo'g'iniga yoki rasmga qarab topadi. Bu xato o'qishga olib keladi. Bu xatoning oldini olish uchun so'z bo'g'inlab o'qitiladi, so'zni

bo'g'in-tovush tomondan tahlil qilishga, tovush-harf tomondan analiz va sintez qilishga diqqat qaratiladi.

Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarga o'qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun o'quvchilarning idroki, xotirasi, tafakkurini va nutqini o'stirishga katta e'tibor berishi kerak. Savod o'rgatishda fonematik eshitish qobiliyatlarini o'stirish, to'g'ri va aniq talaffuz qilishga o'rgatish, tovushni ajratish ko'nikmasini o'stirish muhim sanaladi. Yozuvga o'rgatish jarayonida o'quvchilar ruchkani to'g'ri ushlab, daftarni to'g'ri qo'yish, harfni yozishda yozuv chiziqlari e'tibor bilan boshlanadi. Ular bo'ylab qo'lni harakatlantirishni esda saqlashi, harfni harfga ulashi, qatorga sig'ish-sig'masligi mo'ljallanishi lozim. Bular o'quvchini aqliy va jismonan charchatadi, ayniqsa, barmoq va yelka muskullari charchaydi, bular darsda ikki-uch marta fizkultura mashqlarini o'tkazishni taqozo qiladi.

Demak, harbir boshlang'ich sinf o'qituvchisi yuqorida aytilgan usullarni, mashqlarni yaxshi bilsa va buni o'z dars jarayonlarida qo'llay olsa, o'quvchilarning o'tilayotgan mavzularni o'zlashtirishi yaxshi bo'ladi va darsga bo'lgan qiziqishlari ham oshadi. Shuningdek, o'qituvchi pedagogik faoliyati davomida natijali dars o'tishi zarur bo'ladigan bilim, o'quvchilarni ang'lay olishi, kuzatib borish, nutq ravonligi, tashkilotchilik, kelajakni ko'ra bilish, diqqatni jamlay olishi, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan harxil vaziyatlarning o'z vaqtida oldini olish va ahamiyatli ularni darsga qiziqishini shakllantirib borish ahamiyatli hisoblanadi. Shunday ekan, harbir o'qituvchi A. Navoiy bobomiz aytganidek: "Shogird qanchalik podshoh darajasiga yetsa ham, ustoziga qulliq qilsa arziydi..." degan ibratli so'ziga mos va mukammal o'qituvchi bo'lib yetishmog'i darkor.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh.Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. 2009-y.
2. X.Q.Pirniyazova, Q.Pirniyazov, Q.Bekniyazov. Baslawish klaslarda ana tilin oqitiw metodikasi. Tashkent. 2018-y.

BOSHLANG`ICH SINIF ONA TILI VA O`QISH DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK USULLARNING SAMARADORLIGI

Biybijamal Jartibaeva

Ospanbaeva Aynura Allayar qizi

Nukus davlat pedagogika instituti

Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi 3-kurs talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang`ich sinf ona tili va o`qish darslarining ahamiyati, dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi va nazariy asoslari haqida so`z etiladi.

Kalit so`zlar: boshlang`ich sinf, pedagogik ensiklopediya, pedagogik texnologiya, davlat va jamiyat, yosh avlod, a`maliyot, ta`lim-tarbiya, pedagogik yondashuvlar .

Mamlakatimizda sog`lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodlarning o`z ijodiy va intellectual qobiliyatini yuzaga chiqarish, mamlakatimiz yoshlarini XXI asr talablariga butunlay javob beradigan har taraflama rivojlangan shaxslar etib yetilishtirish bo`yicha keng ko`lamli ishlar olib borilmoqda. Bu bo`yicha kelajak yosh avlodlarining yetuk inson bo`lib chiqishida boshlang`ich sinf o`qituvchilarining ahamiyati kata. Chunki, boshlang`ich sinf o`qituvchisi bolalarning kelajagi uchun ilk qadamini shakllantirib beradi. Ta`lim bilan birgalikda tarbiya ham berib boradi. Shu bilan birgalikda "Pedagogik ensiklopediya" da aytilganidek : "O`z kasbining ustasi bo`lgan, yuqori darajada madaniyatli, o`z fanini chuqur biladigan, o`z fani bilan birgalikda boshqa sohalarni ham yaxshi tahlil qila oladigan, tarbiyalash va o`qitish stilini chuqur egallagan kadr".

Pedagogik texnologiya tushunchasi ta`lim-tarbiya amaliyotini rivojlantirish ehtiyojlari asosida kelib chiqqan, va hozirda pedagogika, psixologiya fanlarida o`z o`rniga ega bo`lgan keng ko`lamli serqirra tushunchadir. Pedagogik texnologiyada ishlab chiqarish sohasidagi turli texnologiyalardan farqli ravishda ishlov beriladigan material o`quvchi (ta`lim oluvchi)ning aqliy, ruhiy, axloqiy sifatleri bo`lib, ularga o`qituvchi, tarbiyachi tomonidan ma`lum maqsadlarga erishish yo`lida har turli ta`sirlar o`tkaziladi. Pedagogik texnologiya tushunchasi dastlab XX asrning o`rtalarida AQShda paydo bo`lib, 1940-50 yillar o`rtasigacha "Ta`lim texnologiyasi" deb yuritilib kelgan va bu ibora texnika vositalaridan foydalanib o`qitishga nisbatan qo`llanilgan. 50-60 yillarda programmashtirilgan ta`lim nazarda tutilgan, 70- yillarda "pedagogik texnologiya" iborasi qo`llanilib u avvaldan loyihalashtirilgan va aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o`quv jarayonini bildirgan.

Pedagogik texnologiya – Bu o`qituvchi (tarbiyachi)ning o`qitish (tarbiya)

vositalari yordamida o`quvchi (talaba)larga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta'sir ko`rsatish va bu faoliyat maxsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayondir. (N.Saydaxmedov) [1].

Pedagogik texnologiya – o`qitishning, ta'limning shakllari, metodlari, usullari, yo`llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig`indisi va komponovkasi (joylashuvi)ni belgilovchi psixologik tartiblar (ustanovka)lar majmuasi;u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat (B.T.Lixachev).

Pedagogik texnologiya – bu o`qitishga o`ziga xos yangicha (innovatsion) yondashuvdir.U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko`chirilgan tasviri, ta'lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi.(B.L.Farberman)

Qo`llaniladigan asosiy metod bo`yicha pedagogik texnologiyalar quyidagi turlarga ajratiladi [2]:

Dogmatik, reproduktiv metod ;Tushuntirish, ko`rgazmali; Rivojlantiruvchi ta'lim; Muammoli, izlanishli;

Ijodiy metod;

Dasturlashtirilgan ta'lim metodi ;Dialogli metod;

O`yin metodi ;

O`z-o`zini rivojlantiruvchi ta'lim metodi;

Uzluksiz ta'lim turlari bo`yicha maktabgacha ta'lim, boshlang`ich ta'lim, tayanch ta'lim, maktabdan tashqari-qo`shimcha ta'lim, o`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'limi pedagogik texnologiyalariga bo`linadi. Shu bilan birga, ta'lim sohalari bo`yicha ona tili, xorijiy tillar, adabiyot, ijtimoiy, tabiiy, aniq fanlar, san'at, sport, texnika, texnologiya, amaliy fanlar, kasb-hunarlar, maxsus ta'lim pedagogik texnologiyalari mavjud.

Hozirda mavjud bo`lgan pedagogik texnologiyalarni bir qancha belgilariga qarab turlarga ajratiladi. Bu belgilar haqida gapirishdan oldin shuni eslatib o`tishimiz kerakki, pedagogik texnologiya doimo kompleks xarakterga ega bo`lib, u faqat bittagina omildan, metoddan, tamoildan foydalanmaydi. Ya'ni quyida keltiriladigan turlarigagina xos bo`lgan monotexnologiyalar aslida mavjud emas.

Boshlang`ich sinf ona tili va o`qish darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish turli bosqichlarda amalga oshiriladi. Ona tili o`qitish metodikasida o`quvchilarning savodini chiqarish, grammatik tushunchalarini shakllantirish, ularning nutqiy va imloviysavodxonligini oshirishda qo`llanadigan usullar, mashqlar variantlari ko`p. Fonetik, grammatik, orfografik tushunchalarni mustahkamlash, nutqiy malakani mukammal shakllantirishda metodika fanidan belgilangan mashqlar qatorida o`yinlar orqali ta'limga ped texnologiyalarni tatbiq etish ham muhim o`rin tutadi. O`yinlarni boshqa mashq turlaridan farqi shuki, bunda bir tamondan, o`quvchilarning zerikishi, charchog`iga barham berilsa, ikkinchidan tamondan, bolalarning fikrlash jarayoni

tezlashadi, muayyan belgilangan malakalarning mufassal shakllanishi osonlashadi.

Ma'lumki o'quvchi qancha yosh bo'lsa, darslarda qo'llanadigan qiziqarli o'yin elementlari shunchalik ko'p bo'lishi lozim. Chunki darsda qo'llanadigan didaktik o'yin, bir tamondan, ayrim bolalar tabiatiga xos bo'lgan qiziquvchanlik, sho'xlik kabi xususiyatlariga muvofiq kelsa, ikkinchi tamondan, ba'zi bolalardagi odamovilik, indamaslik, uyatchanlik kabi jihatlarini bartaraf etib boradi. Demak, o'yin jarayoni o'quvchi psixologiyasida keskin o'zgarishlar yasaydi. O'yin davomida o'quvchi mavhum grammatik-orfografik tushunchalar mohiyatini anglay boshlaydi, uning xotirasida ko'pgina so'zlar uchun umumiy bo'lgan belgilar o'rin ola boshlaydi, og'zaki va yozma nutqidagi orfoepik – orfografik tushunchalar mohiyatini anglay boshlaydi, yozma nutqidagi orfoepik – orfografik nuqsonlar kamayadi. O'yinlar sinf jamoasining erkin tutishlarini ta'minlaydi, darsning samaradorligi ortadi. O'yinda ko'pchilik o'quvchilarning faol ishtiroki ta'minlanib, reyting ballarini qo'yib borish imkoniyati tug'iladi [4].

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslari o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, og'zaki va yozma nutqlarini rivojlanishi, o'z fikrini erkin va ravon bayon eta olishi, so'zlarni to'g'ri va o'z o'rnida qo'llash ko'nikma va malakalari rivojlantirishda asosiy fan hisoblanadi. Shuning uchun ta'limning dastlabki bosqichidayoq ona tilini o'qitishga alohida etibor berish lozim.

Yoritilgan mavzuda pedagogika va metodikaga oid adabiyotlarni tahlil qilish natijasida pedagogik texnologiya va uning turlari haqida ma'lumotlar keltirildi. Texnologiya atamasi nazariy va metodik jihatdan tahlil qilinib, ilgari surilgan konsepsiyalar qiyoslandi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari borliq olamga, tabiat xodisalariga o'zgacha bir qiziqish va hayrat bilan qaraydilar. Ona tili darslarida so'z vositasida atrofdagi bo'layotgan voqealarni izohlash va ilmiy asoslash o'quvchilarning borliq haqidagi bilimlarini, tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Ona tili darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda o'quv dasturlari va darsliklardagi bo'lim va mavzular uzviyligiga e'tibor berish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. J.Yo'ldoshev, S.Usmonov, "Pedagogik texnologiya asoslari", T., 2014.
2. J.Yo'ldoshev, "Ta'lim yangilanish yo'lida", T., 2010.
3. Tal'at G'afforova "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar", T., 2011.
4. Ptuykov V.Y., "Osnovi pedagogicheskoy texnologii", M., 2019.
5. Q.Yunusov Ona tili darslarida ta'limiy o'yinlar. Andijon. 2015 y.
6. O'.Q.Tolipov Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. T.2010 y.
7. Qosimova K. 4-sinfda ona tili darslari. T. «O'qituvchi» - 2018 y.
8. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T. «O'qituvchi» - 2015 y.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI UCHUN DARS JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN USULLAR

Bozorboyeva Diyora

*Ajiniyoz nomidagi NDPI ning Boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-g kurs talabasi*

Annotatsiya: Boshlang'ich sinif o'quvchilarini o'qitishda o'qituvchilar juda ko'p metodlardan foydalaniladi. Bu inson har xil erka, tentak, o'zboshimcha, qo'rs, yuvosh, uyatchan, gapga tushunmaydigan, haddan tashqari aqlli bolalar bilan birga ishlashadi, ularning xulq-atvorini o'rganadi va hammasini hamjihatlikda tarbiyalaydi. Ularning o'qishda, oilada, do'stlar davrasida, katta-yu kichiklarning oldida o'zlarini qanday ushlab kerakligini, odob bilan gapirish kerakligini o'rgatib boradi. Bu yo'lda u hamma metod va usullardan foydalanadi. Ba'zi bolalar yaxshi, muloyim gapga, erkalatish kabi so'zlarga, ba'zilari qattiqroq gapga, urish-tanbeh so'zlarga quloq soladi. O'qishga hamma bolani tengdek qiziqtirish uchun faqat yozdirish va o'qitishdan tashqari darsda o'yinlar, musobaqalar o'tkazish ham o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liqdir.

Tayanch iboralar: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, baholash usuli, jazolash usuli, quyosh nuri metodi, rag'batlantirish usuli.

O'quvchilar maktabga bormaslaridan avval, ota-onasidan, so'ng maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi bolalarni aqliy va jismoniy tamondan tarbiyalashdan iborat. Bu yerda ular to'g'ri gapirish, fikrlash, yangi muhitga moslashish, do'stlar orttirish, tarbiyachini hurmat qilish, aytgan vazifalarini bajarish kabilarni o'rganadi.

Maktabga birinchi marotaba kelgan, yangi muhitga, yangi insonlarga duch kelgan bolalar orasida maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanmagan bolalar ham uchraydi. Bunday bolalar boshqalardan ajralib turadi, asosan, ular yangi muhitga uzoq vaqt davomida o'rganishadi va o'zlashtirish darajasi ham sekin kechadi. Boshqa bolalar oldin bunday muhitda tarbiyalanganligi, tajribasi bo'lganligi sababli boshqalar bilan tez do'stlashishadi va yozish, chizishni ham tez o'zlashtirib oladi.

Boshlang'ich sinif o'qituvchisi o'zining nutq madaniyati, gapirish ohangi, kiyinish odobi, tartib-intizomligi, to'g'riso'zligi bilan bolalarda yaxshi taassurot qoldirishga harakat qilishi lozim. O'qituvchi o'quvchilariga odob-axloq qoidalari, to'g'riso'zlik haqida o'rgatar ekan, o'zi ham bu qoidalarga rioya etishi kerak. Agar u bolalarga rost gapiring deb, o'zi yolg'on gapirsa, maktabning ichki tartib-qoidalariga rioya qiling deb, o'zi darsga kech va formasiz kelsa, bolalar ham ustozidan ko'rganini takrorlamasligiga kim kafolat beradi? O'qituvchi bolalarga o'rgatayotganlariga o'zi ham loyiq bo'lsa, unda bolalar ham u kabi tartibli va intizomli bo'lishga harakat qiladi.

Shu sababli ham boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan juda katta e'tibor, mas'uliyat talab etiladi.

Birinchi sinf o'quvchilariga yozish, chizishni o'rgatishda o'qituvchilardan katta sabr-toqat talab etiladi, chunki, maktabga har xil xulq-atvordagi bolalar keladi. Ularni tarbiyalash, bilim berishni noldan boshlab o'rgatish ham oson emas. Birinchi sinf o'quvchilariga alifboni o'rgatishda, asosan, rasmlardan foydalaniladi. Bu ularda harflarni yodda saqlab qolish qobiliyatini rivojlantiradi. Bundan tashqari, barcha o'quvchilarga o'tilgan har bir harfga bog'liq birma-bir misollar aytirish ham samarali natija beradi.

Birinchi sinfda o'qituvchi o'quvchilari haqida, ularning oilaviy sharoiti, xulq-atvori to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi va kimga qanaqa gapirish kerakligini ham dars jarayonida bilib oladi, ya'ni, ba'zi bolalar muloyim gapga, ba'zilar mutloqo teskari gapga tushunadi. Bolalarning bilim darajasi yuqori yoki past bo'lishi o'qituvchining dars rejasini to'g'ri tuzishi va qiziqarli metodlardan foydalana olishiga bog'liq. Agar o'quvchilarni birinchi sinfdan boshlab o'zining dars o'tish jarayoniga qiziqтира olsa va ularni darsga jalb etish qo'lidan kelsa, keyinchalik ular bilan ishlashish qiyinchilik tug'dirmaydi. Boshlang'ich sinf bolalarni uyga vazifalarini baholash jarayonida ularga juda past baho qo'yish ham ularning o'qishga degan qiziqishlarini susaytiradi, lekin bu degani ularga faqat 5 va 4 baho qo'yish kerak degani emas. Ba'zi paytlarda 3 bahosini ham qo'yib turish kerak sababi, o'quvchilar 4 va 5 baholarini olishga o'rganib qolsalar bu odatiy holat bo'lib qoladi va 3 olsa keyingi safar yaxshiroq tayyorlanib kelishga harakat qiladi. Ona tili va o'qish savodxonligi darsidan uyga vazifa biror matnni o'qib kelish topshirilgan bo'lsin deylik. O'quvchilarni ketma-ket o'qitish jarayonida ular orasida uyga vazifani tayyorlamaganlar ham uchrab turadi. Ular matnni sekin, so'zlarni qo'shib o'qishda qiynaladi. Bunday o'quvchilarni baholashdan oldin boshqa sinfdoshlaridan ularning fikri so'ralsa, har kim har xil baho aytadi, ba'zilar 3, ba'zilar 4, ba'zilar esa 5 deb baholaydi. Shunday paytlarda o'qituvchi uning darsga qatnashish darajasi oldin qanday ekanligiga qarab xulosa chiqaradi. Agar u yaxshi o'qiydigan o'quvchi bo'lsa, unga "bu safar u tayyorlana olmabdi, lekin keyingi darsga, albatta, tayyorlanib keladi, to'g'rimi?",- deb undan so'rab oladi va 4 bahosini qo'yib bersa, u keyinga darsga tayyorlanib 5 baho olishga harakat qiladi. Bu usul orqali boshqa bolalarning o'sha o'quvchiga nisbatan qanday munosabatda ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Dars jarayonida o'quvchilar bilan har xil holatlar kuzatiladi va bu paytda o'qituvchining xato qilishi mumkin emas. Mobodo xato qilsa, men xato qildim, adashdim demasdan, shu vaziyatdan silliq, xatosini sezdirmasdan chiqib ketishi kerak. Masalan, matematika darsida $17+15=33$ deb yozib ketdi deylik. O'quvchilar orasida ba'zilar xato ekanligini sezmay qolgan bo'lishi mumkin, lekin, ba'zilar buni payqaydi va aytadi. Bu holatda o'qituvchi "ha" adashibman deb to'g'rilab qo'yishi mumkin

emas, sababi boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilmasdan bo'ldi degan tushuncha yo'q. Ularda ustoz yaxshi bilmaydi degan fikr miyalariga joylashib qoladi va bo'lgan holatni uyidagilarga aytib boradi. Bu ota-onalarida ham noto'g'ri taassurat qoldirishi mumkin. Shu boisdan, o'qituvchining xatosini o'quvchisi topganda, "ha sen to'g'ri topding, men sizlarning bilimlaringizni tekshirish uchun ataylab xato yozgandim, kim darsda e'tiborli yoki e'tiborsiz o'tirganini bilmoqchi edim"- deb vaziyatdan chiqib ketsa, birinchidan o'z xatosini to'g'rilab oladi, ikkinchidan boshqa bolalar ham sergaklashib e'tiborli yozishga harakat qiladi.

O'qituvchilar darsga tayyorlanmagan yoki haddan tashqari quloqsiz bolalar uchun jazolash metodidan foydalanadi. Bunday bolalarni jazolash uchun ularga tanbeh berishi, turg'izib qo'yishi, boshqa o'quvchilar oldida obro'sini to'kish holatlari juda ko'p uchrab turadi. Lekin, ba'zi o'qituvchilar orasida bolalarning qo'lga chizg'ich bilan urish, orqasiga urish, qo'lidan qattiq ushlab silkish, boshiga urish kabi jazolash usullaridan foydalanadiganlar ham uchraydi. Buning oqibatida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tana a'zolariga shikast yetishi, miyasi chayqalishi mumkin. Ular biror fanni o'zlari qiziqqanidan emas, balki, ustozlaridan qo'rqqanidan tayyorlaydilar. Baribir ham o'zlari qiziqmasdan, tushunmay darsga qatnashganlari bilan ular oz vaqt ichida yodlaganlarini unutib qoladi. Bu kabi qattiq jazolash o'rniga bolalarning nima sababdan darsga tayyor emasligini so'rash, tushunmagan bo'lsa qayta tushuntirishi, yonidagi do'stlarining ham yordam berishini so'rashi maqsadga muvofiqdir.

Bolalarni aqliy tomondan o'ylash qobiliyatini, yakka fikrini rivojlantirish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun "Quyosh nuri" metodidan foydalanish samarali natija beradi. Bu metodda o'qituvchi plakatga quyoshning rasmini chizadi va nurlarini 2-3 donadan o'quvchilarning qo'lga beradi. Quyoshning o'rtasiga mavzu yozib qo'yiladi. Masalan, "Navbatchi" va shu kabi darsga bog'liq mavzular. Quyosh nur sohib turishi uchun unga nurlarni yopishtirish kerak. Lekin, bu nurlarni yopishtirishdan oldin, o'quvchilar mavzuga aloqador so'zlarni ya'ni navbatchining vazifasi nimalardan iborat ekanligini yozishlari, so'ngra quyoshni nurlari bilan to'ldirishlari mumkin. Masalan, bu nurlarga sinfga hammadan oldin kelish, partalarni tekislab qo'yish, stol-stullarning changini olish, doskani artish, gullarga suv quyish va shu kabi o'z fikrlarini yozadi. Bu ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, teranroq o'ylashga va to'g'ri yozishga undaydi. Bu metod orqali bolalar bilan yakka turda yoki guruh bo'lib ishlashimiz mumkin bo'ladi.

Sinf rahbari o'quvchilar orasida darsga yaxshi tayyorlangan, hamma fanlardan a'lo bahoga o'qiydigan bolalarda rag'batlantirish usulidan foydalanadi, ya'ni ularning daftarlariga stiker yopishtirish, baholash kartalarini berish yoki hafta so'ngida eng yaxshi baho olgan o'quvchilarga sovg'alar berish ham o'quvchilarning darsga qiziqishini orttiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarni tarbiyalash va bilim berishda o'qituvchilarning egallagan o'rni juda katta ahamiyatga ega. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov: "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi",- degan edilar. Ta'lim va tarbiya ikkalasi qushning ikki qanoti kabidir. Agar qushning bir qanoti yo'q bo'lsa, u ucha olmaydi. Insonlarda ta'lim yoki tarbiyaning biri yo'q bo'lsa, ular shu bir qanoti yo'q qush kabidir. Shu boisdan, o'qituvchilar o'quvchilarga ta'limni ham, tarbiyani ham tengdek berib borishlari kerak. Bu yo'lda ulardan katta sabr-toqat, pedagogik mahorat talab etiladi.

FARZAND TARBIYASINING SHAKLLANISHIDA OTA-ONANING TUTGAN O'RNI

Xo'djabayeva Xurshida

*Ajiniyoz nomidagi NDPI ning Boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-guruh talabasi*

Annotatsiya: Bola tarbiyasida ota-onaning tutgan o'rni muhim bo'lib, ona bolasini tarbiyalashni homiladorlik vaqtida boshlashi kerak. Chaqaloq tug'ilganidan keyin uning, avvalo, gigiyenasiga, kiyim-kechagiga, emaklab yurishi, keyinchalik oyog'ini qanday bosishini kuzatishi, oyoq bosishida nuqson bo'lsa uni shifokorga ko'rsatishi, gapirish ohangi qanday ekanligi hamma hammasiga ota-ona e'tibor berishi kerak. Bolani tog'ri gapirish va intizomli, tarbiyali bo'lishi uchun ota-ona bolasi bilan yoshligidan shug'ullanib borishi, farzand tarbiyasida muhim ro'l o'ynaydi. Ota-ona farzandlari voyaga yetishi davrida ozgina e'tiborsiz qoldirishi ham ularning tarbiyasiga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Tayanch iboralar: Ota-onaning vazifasi, bola tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, nutq odobi, murossozlik, e'tiborsizlik, bolani jazolash, begonalashish

Oilada farzand tarbiyasini tashkil etish juda muhim ahamiyatga egadir. Bola dunyoga kelgandan boshlab, eng avvalo, ota-onasini ko'radi. Ular nimani o'rgatsa, nimani qilsa shuni ko'rib tarbiyalanadi. Shunga qarab ota-onaning oiladagi obro'si shakllanadi. Bolalar yoshligidan juda qiziquvchan va talabchan bo'ladilar. Ular 1 yosh atrofida endi gapirishni o'rgana boshlaganda ota-onasi ularga e'tiborli bo'lishi, aytishga qiynalgan so'zlariga yordam berishi kerak. 3-4 yoshga kelib bolalarda «u nima?» «bu nima?» kabi savollar va ko'p harakatchanlik kuzatiladi va ota-onalar bolalarining savollariga erinmasdan javob berishlari lozim. Bolalarni tarbiyalash ular dunyoga kelgan paytida emas, balki ona qornida paytida boshlanishi kerak. Ona o'z bolasining sog'lom va aqlli inson bo'lishini istasa homiladorlik vaqtida og'ir narsalar ko'tarmasligi, tushkunlikka tushmasligi, haddan tashqari ko'p urush-janjal chiqarib asabiylashmasligi va shu kabi salbiy illatlardan uzoqroq bo'lib, ko'proq kitob o'qishlari kerak. Kitob o'qish insonni stress holatidan chiqaradi va bolaga ham yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Bolalar gapirishni endi o'rganayotganda ko'p so'zlarni ayta olmaydilar va qisqartirib gapiradilar. Ikki yoshgacha so'zlarni shu zaylda aytishlari mumkin, lekin ikki yoshdan so'ng ota-ona bolasi so'zlarni to'liq talaffuz qilishni o'rgatishi kerak. 3-4 yoshda bolalarda har xil savollar ko'paya boshlashi sababli, ota-onalar hamma vaqt ham savollariga javob bermaydilar va ba'zi paytlarda urushib yuborish holatlari ham kuzatiladi. Aslida, bu juda katta xato. Chunki yosh bolalar bu holatdan keyin qo'rqib, ota-onasidan biror narsa so'rashga ikkilanib, yana baqirib

yuborsa-chi, yoki urib qolsa nima bo'ladi degan xavotir paydo bo'ladi. Buning natijasida bola tortinchoq va qo'rqqoq bo'lib ulg'ayadi. Shu sababli ota-ona har bir xatti-harakatini, gapirgan gapini nazorat qila bilishi kerak. Bu bolaning o'sish jarayonida juda katta ahamiyatga ega.

Tarbiyaning eng muhim ahamiyati nutq hisoblanadi. Bolaning yoshligidan to'g'ri va ravon gapirishi oila a'zolarining gapirish ohangiga bog'liq. Ota-ona oilasida qo'rs so'zlarni ishlatishi, mantiqsiz, bilib-bilmay gapirishi va buni bolalariga aytishi, sal narsaga urishib berishi ham bolaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida bolada qo'rquv paydo bo'ladi va gapirganda duduqlanib gapirishi ham mumkin. Aksar holatda bu ota-onaning bir-biriga bo'lgan yomon munosabatlari natijasida kelib chiqadi. Oilada ota-ona farzandlari oldida shirin so'z bo'lishi, bir-birini hurmat qilib gapirishi va qo'rs so'zlarni ishlatmasdan, samimiy, mehr-oqibatli va dilkash ko'rinishi, shuningdek odob-axloq qoidalariga bo'ysingan holda ish tutishsa o'zlari istagan natijaga erishadilar va yetarli darajada farzandlari oldida obro' qozonadilar.

Bolani yoshligidan mehnat qilishga o'rgatish ularni ham jismoniy tomondan tarbiyalaydi, ham jamiyatga foyda keltiradi. Ota-ona bolasiga kichkinaligidan boshlab og'ir bo'lmagan yengilroq ishlarni bajartirishi, uylarni, hovlilarni tozalatishi, o'tlarni yulishni o'rgatishi va hech narsani uvol qilmaslikni, hamma yerni saranjom-sarishta, narsalarini toza tutishni miyasiga singdirib borishi kerak. Mehnat tarbiyasining asosiy vazifasi bolalarni psixologik va amaliy tarafdin tarbiyalashdir. Har bir bola mehnat qilmasdan moddiy boylik topa olmasliklarini tushunib yetishi kerak. Ota-ona bolalariga mehnat tarbiyasini singdirish orqali ularni yakka o'zlari ishlashga va jamoa bo'lib ishlashga o'rgatadilar. Bundan tashqari kelajakda har xil mehnat turiga qiziqishlari ortadi va ongli ravishda o'zlariga yoqqan kasbni tanlay oladilar.

Ba'zi oila farzandlari juda tartibsiz bo'ladi. Ularni tarbiyalashda ota-ona ko'pincha jazolash usulidan foydalanadi, lekin bu usuldan foydalanish orqali ko'zlangan natijaga erishish qiyin va bu juda past samara beradi. Bundan keyin oila a'zolari orasida mehr-muhabbat, oqibat hissi biroz pasayadi va ularda uzoqlashish, begonalashish holatlari kuzatiladi. Ota-ona tamonidan tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning jazolash usullari ko'pincha bolaning tinib-tinchimasligi, harakatchanligi, injiqligidan uni tinchlantirish maqsadida foydalaniladi. Lekin bolani yosh paytida haddan tashqari jazolash, urish ularning psixologiyasini buzadi. 3 yosh atrofidagi bolalar krizis davrini boshdan kechirayotgan bo'lishi mumkin. Bu davrda bolalar juda injiq, aytganini qildirib, so'zini o'tkazishga harakat qiladilar. Ular o'zlarini onasining bir qismi emas, shaxs sifatida qabul qila boshlaydilar va o'zlarining erkin fikrlari, xohishlari borligini tushunib yetadi, lekin bu davrda ular nimaning to'g'ri, nimaning noto'g'ri ekanligini bilmaydi va o'zlari xohlagan narsaga erishish uchun jon-jahdi bilan harakat qiladi, yig'laydi, g'avg'o chiqaradi, o'z so'zini o'tkazish uchun qo'lidan kelgan hamma narsani qiladi. Bolaning o'zboshimchaligi, o'jarligi, agressivligi va har xil tentakliklari,

urishish, to'polon qilishlari vaqtinchalik davr bo'lgani sababli ota-onalar bunga ko'nikishi, bolani jazolash o'rniga uni qo'llab-quvvatlashi kerak. Bolardagi o'jarlikni qat'iyatlilik bilan almashtirib olmaslik kerak. Qat'iyatlilik yaxshi, chunki bola o'zi xohlagan narsani qiladi va bunda boshqalarga ham quloq soladi, lekin o'jarlik bu o'zi xohlagan narsani qanday yo'l bilan bo'lmasin bajarishni istashdir, bunda tushuntirishlar befoyda. Krizis davrida bolaning erkin fikrlari rivojlana boshlaydi, shu sababli ota-ona unga to'g'ri yo'l ko'rsatib nimaning to'g'ri, nimaning noto'g'ri ekanini asta tushuntirib, uni to'g'ri yo'lga yo'naltira olishi kerak. Yig'lab o'jarlik qilayotgan bolaga ba'zi vaqtda yo'q deyishni ham bilish kerak. Haddan tashqari muloyimlik, hamma narsaga xo'p deyish ham bolaning miyyasida nima qilsam ham ota-onam menga yo'q demas ekan degan fikrni keltirib chiqaradi. Buning natijasida esa bola o'zboshimcha va xohlaganini qildiradigan bo'lib ulg'ayadi. Shu sababli, bolaning bu davrida ular bilan ehtiyot bo'lib ishlashish darkor. Agar ota-onalar qattiqqo'llikni oshirib yuborsa, bolalar qo'rqqoq va erkin fikrga ega bo'lmay qoladi, juda ham ko'ngilchanlik, hamma aytganini qilish ham teskari natija beradi va bola juda erkalanib ketadi. Shuning uchun bu davrda me'yorni saqlay bilish juda katta rol o'ynaydi.

Oilaviy turmushda murosasiz ota-onalar ham uchrab turadilar. Ularning bir-biriga bo'lgan munosabati juda sovuq bo'lib, ko'pincha bir xil muomalaga kela olmaydi. Ota-onaning bir-biriga bo'lgan yomon munosabati, ya'ni oilada har kuni urush-janjal, bir-biriga bo'lgan hurmatsizlik, kelishmovchilik kabilar bolaga juda katta ta'sir yetkazadi. Oilada shunday tarbiyani ko'rgan bola juda katta siqilish va bosim oqibatida o'z qobig'iga o'ralib qoladi va kelajakda shaxsiy fikriga ega shaxs bo'lishi dargumon. Ular aksar vaqtini ishga, bir-biri bilan urush-janjal qilishga sarflashi sababli ham bolalari ko'pincha e'tiborsiz qoladilar va natijada bolalarida ota-onaga bo'lgan mehr kamaya boshlaydi. Bundan keyin ularning boshqalar bilan o'zaro til topishishi, muloqot qilishi juda qiyin bo'lib, muhitga moslashishi uzoq vaqtni talab qiladi va ular kam gap bo'lib ulg'aysa, ba'zi bolalarga ota-onasining har kuni janjal qilishi psixologiyasiga shunday ta'sir qiladiki, ular juda ham jahldor bo'lib ulg'ayadi. Bunday bolalardan har narsani kutish mumkin. Sababi oilada mehr ko'rmagan bola boshqalarga ham mehr bera olmaydi. Bolalar dars tayyorlaganda ota-onasi yordam berishini, bayramlarda yonida bo'lishini, ular bilan o'ynashini xohlashadi, lekin ular o'zlari xohlagan mehr-muhabbatni ota-onalaridan ololmagani sababli ularda har xil bo'shliqlar paydo bo'ladi. Bola bu bo'shliqlarni to'ldirish uchun ota-onasidan emas, balki atrofidagilardan, boshqa odamlardan mehr-muhabbat, e'tibor talab qila boshlaydi. Ko'pincha bunday oila farzandlari noto'g'ri yo'llarga, turli oqimlarga qo'shilib ketadi. Bu oqimlarga qo'shilishining asosiy sababi ularning ruhiy jihatdan sustligidir. Ruhiy jihatdan sust bolalar boshqalarning yaxshi so'zlariga ergashib, ota-onasidan ko'rmagan mehr-muhabbat, e'tiborni o'zgalardan topishga harakat qiladilar va yaxshi gapirgan, unga go'yoki ko'mak berayotgandek ko'rsatib, asta-sekinlik bilan

miyyasini zaharlab, uni egallayotgan yomon niyatli insonlarning makrini sezmaydilar. Shu kabi insonlarning to'riga tushib qolgan bolalar ularga shu darajada ishonib qoladi, hattoki, o'ziga va boshqalarga katta zarar berishi, o'ldirishi ham mumkin. Bu darajaga tushishiga bo'lsa, eng avvalo, ota-onalarning e'tiborsizliklari va oilasida har kuni ko'rsatilayotgan noto'g'ri tarbiyasi oqibatidadir. Vaqt o'tishi bilan bolalarining qiyin ahvolga tushib qolganini bilgan ota-onaning afsus va nadomatlarining hech qanday foydasi yo'q. Shu sababli hamma narsani vaqtda o'ylash kerak. Ota-ona farzandlarida qandaydir salbiy o'zgarishni sezdimi, demak tezroq buning sababini aniqlashga kirishishlari lozim. Buning uchun xatolikni o'zidan izlashi, qanday, qayerda, nima xato qilganini chuqur o'ylab-o'rganib, o'zlarining xatosini tuzatishga kirishishi, farzandlari bilan alohida shug'ullanib, oilada hamjihatlikni ota-ona asray turib, bolalarini kimlar bilan do'st bo'lganini, darsga qatnashishini nazorat qilishi, har kuni nimalar qilganini so'rab suhbatlashishi, sirlashishi, u bilan maslahatlashib ma'naviy jihatdan tayyorlab borishi, farzandlari ham bu tartib-tarbiyaga asta-sekin o'rganishi lozim. Ba'zi paytlarda rag'batlantirib, ma'naviy jihatdan bolalarni qo'llab-quvvatlash kerak, ammo haddan tashqari oshirib yuborish yaxshi natija bermaydi.

Xulosa qilib aytganda, oilada farzand tarbiyasi ota-onaning bir-biriga bo'lgan munosabati, hurmat-izzati, bolalariga ko'rsatayotgan mehr-muhabbati, oiladagi samimiylik, to'g'riso'zlik, insoniylik kabi hislatlari bolalarning tarbiyasida juda katta ahamiyatga ega. Dono xalqimiz «Qush uyasida ko'rganini qiladi»,-deganlaridek bolalar ham ota-onalaridan ko'rgan tarbiyani hayoti davomida takrorlashadi. Bundan tashqari bolalarini yaxshi tarbiyalash uchun pedagogik usullardan, jazolash va rag'batlantirish usullaridan foydalanishlari bir qancha ahamiyatga ega. Ota-ona eng birinchi bilimli va tarbiyali bo'lishi, oilasida totuvlik va hamjihatlikni shakllantira olishi kerak, shundagina ular bolalariga ham to'g'ri tarbiya bera oladilar.

Adabiyotlar:

1. A.S.Nauruzbaeva, R.O.Nurjanova. Z.K.Naimova, A.A.Embergenova «Ta'rbiya isleri metodikas» Tashkent-2019 y
2. A.Dosxodjaeva «Shan'araq pedagogikasi» Tashkent-2021y
3. O.Hasanboyeva, D.Xoliqov, SH.K.Toshpo'latova, N.SH.Nurmatova va boshqalar «Oila pedagogikasi» Toshkent-«ALOQACHI»-2007 y
4. <http://sof.uz>

ПАХТА TOZALASH KORXONALARIDA CHANG HAVODAN IFLOSЛИKЛАРНИ USHLAB QOLISH QURILMASINING SANOATDAGI O'RNI

Saidolimxon Saydaxmatxonov Sayfidinxon o'g'li
Namangan Muhandislik Texnologiya Instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada paxta tozalash korxonalariga qabul qilingan paxta xom ashyosining tarkibida bo'lgan mineral va organik aralashmalarning ishlab chiqarish jarayonida ajralib chiqqan iflosliklarni ushlab qolishda siklon qurilmasining o'rni hamda tozalash samaradorligiga ta'siri o'rganilgan.

Kalit so'zlar: paxta, ifloslik, tozalash effekti, siklon qurilmasi, filtr, tezlik, zichlik, paxta oqimi, pnevnotransport.

Paxta tozalash sanoatini izchil va barqaror rivojlantirish, tarmoq korxonalarida zamonaviy asbob-uskunalarni joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali va oqilona foydalanish darajasini oshirish, jahon paxta bozorida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish asosi hisoblanadi.

Jahon bozorida zamonaviy texnika va texnologiya asosida chigitli paxtaning miqdori va sifati yo'qolishini kamaytirish hamda to'la yigiriluvchanlik xususiyatlarida son va sifatini saqlab qolgan holda qayta ishlashni talab etmoqda. Sifatli to'la olish birinchi navbatda paxtani mineral va organik iflos aralashmalardan hamda paxta xom ashyosi tarkibidagi chang zarralaridan tozalash samaradorligiga bog'liqdir.

Korxonalarining ishlab chiqarish rejasida olinadigan mahsulotlar miqdori belgilangan bo'lib, paxtani mayda va yirik iflosliklardan qayta tozalashlar bosqichlari ko'rsatiladi, paxtani iflosligi paxtani tozalash korxonalarida maksimal 22% gacha belgilanadi.

Ma'lumki, hozirgi kunda paxta tozalashda korxonalarida chang havodan iflosliklarni ushlab qolish uchun siklon qurilmasidan foydalaniladi. Siklon qurilmasi (texnikada) — havo va uning tarkibidagi muallaq qattiq zarralar (masalan, suv tomchilari yoki chang)dan markazdan qochma kuch ta'sirida tozalash uchun mo'ljallangan apparat. Tuzilishi past tomonga konussimon torayib boradigan silindrik korpus, korpusga urinma yoki spiralsimon tarzda o'rnatiladigan patrubok va chiqish quvuridan iborat. Chang havo katta tezlikda patrubok orqali Siklonning yuqori qismiga yuboriladi. Chang havo aylanma harakatlanib, yuqoridan pastga spiralsimon uyurma hosil qilib tushadi. Shunda markazdan qochma inersiya kuchi ta'sirida muallaq qattiq zarralar (masalan, chang zarralari) Siklonning devoriga yo'naltiriladi, chang havo tarkibida bo'lgan iflosliklar korpus tagiga tushib, chiqish patrubogi orqali chiqadi. Tozalangan havo chiqarish quvuri orqali harakatlanib, ichki uyurma hosil qiladi va va

filtr orqali tashqariga chiqib ketadi. Ma'lumki, hozirgi kunda paxta tozalash korxonalarida mayda iflosliklardan tozalovchi uskunalarning aspirasiya (lotincha "aspirasiya" so'zidan olingan bo'lib surish, nafas olish degan ma'noni anglatadi) tizimida kamchiliklar kuzatilmoqda. Turli sirdan o'tgan mayda iflosliklar va kalta tolalar iflosliklarni olib ketuvchi shnekka tushadi.

Bunga sabab changli havoni chang ushlagichga olib ketadigan trubadagi havo bosimi balandligidir. Changli havoning ko'p qismini mayda iflosliklar va kalta tolalar tashkil etadi.

Bu kamchilikni bartaraf etish uchun changli havoni so'rib oluvchi uskuna ya'ni ventilyatoridagi havo bosimini pasaytirib, iflosliklarni olib ketuvchi shnek ustiga vakuum-klapan o'rnatishdan iborat. Bu vakuum-klapaning vazifasi uskuna ichidagi aerodinamik holatni saqlab, kalta tolalarni ushlab qoladi.

Xo'jaliklardan transportlarda tashib keltirilgan paxta hosili kontraktasiya shartnomasiga binoan paxta tozalash korxonalarida qoshidagi va korxonada tashqarisida joylashgan paxta tayyorlov punktlarida qabul qilib olinadi. Har yilgi paxta tayyorlash davlat rejasini bajarish uchun, dalalardan keltirilgan paxtani o'z vaqtida qabul qilib olish, markazlashgan usulda quritish-tozalash, yaxshi saqlash uchun paxta tayyorlash punktlari, (paxta tozalash korxonalarida) quyidagi talablarni bajarishlari kerak:

-paxta yetishtiradigan klasterlar, fermer xo'jaliklar bilan har yili hamma hosilni davlatga sotish uchun kontrakt shartnoma tuzishi va uning bajarilishini tekshirish;

-qo'lda va mashinada terilgan chigitli paxtaning sifatini qanday qilib saqlash, navlarga to'g'ri ajratish haqida tushuntirish o'tkazish;

-chigitli paxtani qabul qilishda davlat standartida belgilangan qoida va me'yorlariga qat'iy rioya qilish;

-quritish-tozalash bo'limlarining to'xtovsiz va unumli ishlashini ta'minlash;

-qabul qilingan chigitli paxta uchun, to'g'ri va o'z vaqtida hisob-kitobni amalga oshirish;

-qabul qilingan paxtani seleksion va sanoat navlari bo'yicha uning terim turiga qarab alohida to'daga ajratish;

-urug'lik paxtalarni ham reproduksiya bo'yicha alohida to'dalarga ajratish;

-saqlanayotgan paxtaning sifatini o'z vaqtida nazorat qilish va korxonada rejasiga muvofiq jo'natib turish;

-paxtani saqlash, quritish, tozalash va paxta tozalash korxonasiga jo'natish vaqtlarida uning sifatini buzmaslik va isrof bo'lishiga yo'l qo'ymaslik;

-paxta tayyorlash punktida saqlanayotgan paxtaning hisobini to'g'ri olib borish;

-paxtani qabul qilish, saqlash, quritish va tozalash hamda korxonaga yetkazib berish uchun sarflangan harajatlarni kamaytirish choralarini ko'rish;

-yong'indan saqlash va xavfsizlik texnikasi qoidalariga muvofiq tadbirlarni tashkil etish;

-paxtani tayyorlash punktlarida ishlatiladigan hamma mexanizmlardan unumli foydalanish va ishlatiladigan har bir xo'jalik, extiyot qismlarini tejab-tergab sarflash choralarini ko'rish;

-paxta tozalash korxonasiidan keltirilgan urug'lik chigitni saqlash va o'z vaqtida xo'jaliklarga, shirkatlarga qoidaga muvofiq tarqatish. Paxtani qabul qilish davrida korxonada direktorining (rahbarining) buyrug'iga muvofiq paxta tayyorlash punkti territoriyasi ikki yoki uchta shartli qismga (zonaga) bo'linadi. Qabul qilinib maxsus guruhlariga ajratib buntlangan paxtalar pnevмотransportlarda, transpartiyorlarda hamda bunt buzgichlar orqali qayta ishlash uchun texnologik jarayonga yo'naltiriladi.

Umumiy xulosa qilib aytganda paxta tozalash korxonalarida chang havo tarkibidagi mayda iflosliklarni tozalash uchun vertikal va parallel joylashgan paxtani ketma-ket harakatlantiruvchi takomillashtirilgan pnevмотransport, siklon hamda separator qurilmalarining tozalash samaradorligiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.T.Xojjiyev, B.M.Mardonov, F.N.Sirojiddinov «Paxta tozalash jarayonini modellashtirish» o'quv qo'llanma. Toshkent. 2018.
2. . [O'zbekiston milliy ensiklopediyasi](#) (2000-2005).
3. B.M. Mapdonov, X.S.Usmanov, F.N.Sipojiddinov. Modelipovanie pportsessa ochistki xlopka-sipsa pod deystviem veptikalno paspolojennix kolkovix bapabanov// Ppoblemi mexaniki.-2019.-№1.-S.27-32.(05.00.00; №6)
4. M.Musayev. Sanoat chiqindilarini tozalash texnologiyasi asoslari
5. Mardonov B.M., Usmanov Kh.S., Tangirov A., Karimov A., Sirojiddinov F. Theoretical issues of develorment an innovative technology of cleaning raw cotton // International Journal of Advanced Research in Sciyence, Yengineyering and Technology (IJARSET) ISSN: 2350-0328, Volume-6, Issue-3, December, 2019-R.8285-8293.

SAID AHMADNING «SOBIQ» AHMAD A'ZAMNING « SOYASINI YO'QOTGAN ODAM» HIKOYALARI KOMPOZITSIYASI VA BADIY G'OYASI

Xoshimova Husnida

*Terzim davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti
2-bosqich 521-guruh talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada hikoyalarning kompozitsiyasi, ulardagi bir-birini inkor qilmaydigan, bir-biriga bog'liq g'oyalar, bugungi zamon insonlari vaqtini nimalarga sarf qilayotgani xususida adiblarning qarashlari, fikr-mulohazalari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Said Ahmad, Ahmad A'zam, hikoya, badiiy g'oya, kompozitsiya, pafos

Annotatsiya. Ushbu maqolada hikoyalarning kompozitsiyasi, ulardagi bir-birini inkor qilmaydigan, bir-biriga bog'liq g'oyalar, bugungi zamon insonlari vaqtini nimalarga sarf qilayotgani xususida adiblarning qarashlari, fikr-mulohazalari xususida so'z yuritiladi.

Key words: Said Ahmad, Ahmad Azam, story, artistic idea, composition, pathos

Абстрактный. В данной статье рассказывается о композиции рассказов, идеях, которые не отрицают друг друга и связаны друг с другом, взглядах и мнениях писателей о том, на что современные люди тратят свое время.

Ключевые слова: Саид Ахмад, Ахмад Азам, рассказ, художественная идея, композиция, пафос.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad 1920-yil 10-iyunda Toshkent shahrining Samarqand darvoza mahallasida dunyoga kelgan. Yana bir buyuk yozuvchi Ahmad A'zam esa 1949-yil Samarqand viloyatining Jomboy tumanidagi G'azira qishlog'ida tug'ilgan.

Maqsadim, Siz azizlarga shundoq ham yaxshi tanish bo'lgan bu ikki yulduzlarni tanitish emas, ularning asarda ilgari surgan g'oyalarini eslatishdir.

Yozuvchi Said Ahmadning « Sobiq » hikoyasi Sizga tanish-a? Asar bosh qahramoni paxta dalasida taraktor haydaydi, paxta teradi. U hatto bir kunda to'qqiz tonnagacha paxta teradi. Ertasi kuni o'zining chakkasiga paxta taqib tushgan suratini gazetada ko'radi. Shundan keyin uning «hayot»i boshlanadi. Birin-ketin turli yig'ilishlar, maslijlar, anjuman va bayramlarga taklif qilina boshlanadi. U haqida kino film suratga oladilar, uning portretini chizdiradilar, o't o'chirish xodimlaridan birining nafaqaga chiqish marosimiga taklif qiladilar..... Xullas uni tinch ishlashiga yo'l qo'ymas edilar. Har kuni yangi bir taklif, yangi bir marosim. Vaholangki uning ishi

suhandonlik, tadbirlarda boshlovchilik qilish emas, dalada paxta terish edi. Hayotda shundoq ham qo'lidan hech bir ish kelmay, gapni birovga bermaydiganlar talaygina. Hech bo'lmasa qo'lidan ish keladiganlarga halal bermasalar bo'ladi-ku! Xullas, bizning «super yulduz» imiz har joyda nutq so'zlayverib gapga ancha chechan bo'lib qoldi. Vanihoyat, o'zining bunday «muhim» ishlaridan qutilib dalaga qaytib keldi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, uning traktoriga «Kolxozimizning sobiq mexanizatori falonchi mavsumda bir hafta dalaga chiqib, shu mashinada paxta tergan» deb yozib qo'yishi. « Super yulduz»ning bu gapdan jahli chiqib, bunday beodob so'zlarni yozganni toza ta'zirini bermoqchi bo'ldi-ku, ammo uni yana-da «muhim» ishi kutyotgan edi-da, ya'ni ular yosh drujinachilar bilan rayon markazidagi somsapazlikni tekshirishi, kalotiyasi o'lchashi kerak edi. Xuddi mana shu joy asarning pafosini tashkil etadi. « Pafos» yunoncha « hissiyot, iztirob» kabi ma'nolarni anglatadi. Pafos adabiy asarda badiiy g'oyaning ehtiros bilan, g'oyat ta'sirchan, o'quvchini hayrat va larzaga solar darajada ifoda etishi bo'lib, adib unda o'z nuqtayi nazari va qarashlarini yashirmaydi. Asar pafosi o'quvchining o'z nuqtayi nazarini aniq belgilab olishga ham ko'mak beradi.

Ahmad A'zamning « Soyasini yo'qotgan odam» hikoyasi qahramoni o'z xayollari bilan yuruvchi bir yigit edi. U o'zining soyasini yo'qotib qo'yadi. Bu hol nafaqat o'zining, balki ishxonada birga ishlovchi hamkasblarining ham e'tiborini o'ziga tortadi. Uni ko'rish uchun katta-katta lavozim egalari, boshliqlar keladi. Hatto bu masalada ishxonada chora-tadbirlar amalga oshirilib, bu bilan shug'ullanish uchun komissiya tashkil qiladilar.

Bu holati Jonatan Sviftning « Guliverning sayohatlari» asarini yodga soladi. (Uy qurishni tepa qismidan boshlashga harakat qilsih, bodringdan quyosh energiyasi olish...)

Ushbu asarlar kompozitsiyasi bir-biriga o'xshab ketadi. G'oyasi esa deyarli bir xil deyishimiz mumkin.

Adiblar bu bilan nima demoqchi ekanini tushundingiz-a. Vaqtingizni bekorchi narsalarga sarflamang demoqchi. Darhaqiqat bugungi kunda yoshlar bekorchi narsalarga vaqtlarini sarf qilmoqdalar. Odamzodning tabiati juda qiziq yaratilgan — boyligini yo'qotsa xafa bo'ladi-yu, umri zoye ketayotganiga esa parvo qilmaydi.....

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 D. Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. 2018
2. 6- sinf adabiyot darslik 2014
3. Sh Sariyev Adabiyot, metodik qo'llanma 2020
4. Internet ma'lumotlari

АКА-УКА GRIMMLAR ASARLARIDA SENTIMENTALIZM

*Xoshimova Husnida**Terzim davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti**2-bosqich 521-guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali sentimentalizm adabiy oqim sifatida nimalarni o'zida aks ettirishi hamda butun dunyo asarlarini sevib o'qiydigan aka-uka Grimmlar asarlarida bu oqimning aks ettirilishini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: sentimentalizm, aka-uka Grimmlar, ertak

Abstract. Through this article, we will consider what sentimentalism as a literary trend reflects and how this trend is reflected in the works of the Grimm brothers, who love to read the works of the whole world.

Key words: sentimentalism, Brothers Grimm, fairy tale

Абстрактный. В этой статье мы рассмотрим, что отражает сентиментализм как литературное течение и как это течение отражается в произведениях братьев ГРИММ, которые любят читать произведения всего мира.

Ключевые слова: сентиментализм, братья Гримм, сказка.

Aka-uka Grimmlar Germaniyaning Xanau shahri(Berlin)da dunyoga kelgan. Akasi Yakob Grimm 1785-1863-yillarra yashab ijod qilgan. Ukasi Vilgelm Grimm esa 1786-1859-yillarda yashab ijod qilgan. Ular nemis filolog olimlari bo'lib, Marburgda yuridik ma'lumot olishgan.

Magdeburg(Germaniya) universitetida talabalik chog'laridayoq o'rta asr olmon tarixi va madaniyati, xalq og'zaki ijodi, til va adabiyoti bilan jiddiy shug'ullanganlar. Ular dastlab Gyotinggen, keyin esa Berlin universitetining professorlari sifatida faoliyat yuritganlar.

Aka-uka Grimmlar filolog olimlar sifatida « Nemis tili tarixi» (1848, 2 jild) va « Nemis grammatikasi» (1819-1837, 4 jild) tadqiqotlarini ham yaratganlar.

Bundan tashqari « Nemis mifologiyasi» , « Nemis rivoyatlari » kitoblari, « Zolushka», « Qor qiz », « Botir tikuvchi », « Yosh pahlavon », « Bremen musiqachilari » , « Qizil qalpoqcha » , « Aqlli Gans », « Rapunzel», « Qurbaqa shahzoda» « Bir xurmacha shavla » , « O'n ikki aka-uka » singari bir qator ertaklari mavjud. Bulardan tashqari adiblarning « Bolalar va oilaviy ertaklar nomli 3 jildli kitobi mavjud bo'lib, ularda ikki yuzdan ortiq ertaklar jamlangan.

Xalqdan olingan ertaklar Grimmlar tomonidan qayta ishlanib, yana xalqqa qaytarilgan. Grimmlar ertaklarining asosiy qahramonlari kambag'al beva-bechoralarning o'g'il-qizlari, cho'pon yoki askarlar bo'lishgan.

Sentimentalizm fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, u « hissiyot, his qilish» degan ma'nolarni anglatadi. Bu oqim XVIII asr o'rtalarida Angliyada feodalizm sarqitlariga qarshi kurashni oddiy kishilarning oliyanobligini, qalbini tasvir markaziga olgan. Sentimentalizm oddiy qahramonlar qismatini har qanday kitobxonni achintiradigan tarzda tasvirlaydi.

Aka-uka Grimmlar ertaklarida ham yuqorida ta'kidlaganimizdek, asar bosh qahramonlari oddiy insonlar bo'ladi. Ular albatta o'z aql-idroklari bilan yovuzlikning ustidan g'alaba qozonadilar. Masalan, «Botir tikuvchi » ertagini olaylik. Uning bosh qahramoni Gans hech qanday badavlat insonning farzandi emas oddiygina bir tikuvchi. O'z aql-zakovati bilan butun xalqni turli balo-yu ofatlardan asrab qolgan. « Qizil qalpoqcha » ertagining bosh qahramoni ham oddiygina oilaning yoqimtoy qizi edi. U malika ham, badavlat xonadonning tannoz qizi ham emasdi. Barchamizga ma'lum « Rapunzel» ertagini olaylik, uning bosh qahramoni Rapunzel necha yillab yalmog'iz kampirning uyida odamlar yuzini ko'rmay voyaga yetdi. Ammo u shunda ham tushkunlikka tushmadi, ozodlikka chiqish uchun harakat qildi va maqsadiga yetdi. « O'n ikki aka-uka » ertagining qahramonlari ham boshidan qanchadan qancha og'ir kunlarni o'tkazdilar, lekin sira irodasini sindirmadilar.

Sentimentalizm bizga hayotda har qanday vaziyatda inson irodasini sindirmasligi kerakligi, matonat va sabr-qanoat bilan yo'limizda uchragan har qanday g'ovni, to'siqlarni yengib o'tib, yorug' kunlarga yetib borish mumkinligini o'zimiz kabi oddiy insonlarni g hayoti misolida sof, ishonarli va samimiy qilib ko'rsatib beradi.

Sabr va qanoat inson uchun doimo kerak. Yaxshilik yetganida ham, yomonlik yetganida ham, zarar-kamchilik paytida ham, foyda-borchilik paytida ham. Sabr so'zining ma'nolaridan biri ham - tanglik paytida o'zini tutib turishdir.

Dunyodagi holatlar boshqacha bo'lishi mumkin. Ba'zan jinoyatchi, zolim va tajovuzkorlarga omad kulib boqqandek ko'rinadi. Bunday qarasangiz, ishlari zo'r, kunlari shod-xurramlikda va aysh-ishratda o'tayotgandek. Ular dunyoning yarmiga, balki hammasiga ega bo'lsinlar, ammo besh kunlik o'tkinchi dunyo matohlarining qiymati qancha? Unga erishganlar aslida nimaga erishadilar o'zi? Ammo sabr qilganlar mardlik ishlarini amalga oshirgan bo'ladilar va uning ajrini to'la to'kis oladilar. Bu aka-uka Grimmlar ertaklarida aniq va lo'nda holda bayon etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. 2018
2. Sh. Sariyev. Adabiyot , metodik qo'llanma. 2020
3. S. Ahmedov., B Qosimov. 5-sinf adabiyot darslik. 2020

TILSHUNOSLIKDA TAQLID VA OLMOSHLARNING SO'Z TURKUMI SIFATIDAGI O'RNI

Xoshimova Husnida

*Terzim davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti
2-bosqich 521-guruh talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali taqlid va olmosh so'z turkumlari avval va hozir qanday talqin qilinayotgani va qaysi biri ko'proq maqsadga muvofia ekanligi haqida fikr-mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: so'z turkumi, taqlid so'z, olmosh, semantik xususiyat, sintaktik xususiyat

Abstract. This article will discuss how the phrases taqlid and pronominal have been interpreted before and now, and which one is more appropriate.

Key words: word group, imitative word, pronoun, semantic feature, syntactic feature

Абстрактный. В этой статье мы обсудим, как фразы таклид и местоимение интерпретировались раньше и сейчас, и какая из них более уместна.

Ключевые слова: группа слов, подражательное слово, местоимение, семантический признак, синтаксический признак.

So'z turkumlarining sonini va tarkibini aniqlashda o'zbek tilshunos olimlari ham dunyo tilshunosligidagi kabi so'zlarning sintaktik, semantik, morfologik xususiyatlari inobatga olinadi. Biroq amaliyotda asosan so'zlarning semantik xossasiga qarab turkumga ajratish urfga kirgan.

Sintaktik xususiyatda so'zlarning asosan qanday gap bo'lagi vazifasida kelishiga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, semantik xususiyatda uning ma'no ko'lamiga e'tibor qaratiladi. Ra'no Sayfullayevaning « Hozirgi o'zbek adabiy tili » o'quv qo'llanmasi(190-sahifa)da so'zlar semantik tasnifga ko'ra ular quyidagicha guruhlariga ajratilgan ekan:

- 1) mustaqil lug'aviy ma'noli so'zlar (fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid)
- 2) nomustaqil lug'aviy ma'noli so'zlar (olmosh va so'z -gap)
- 3) lug'aviy ma'nosiz so'zlar (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama)

Olmoshlar ma'noviy g'ayrioddiylik xususiyati bilan taqlidga yaqin turadi. Shuning uchun ikalasi ham «ichi bo'sh so'z » hisoblanadi. Farqi shundaki, taqlidning ma'noviy bo'shlik xususiyati olmoshga nisbatan ancha katta. Sababi olmosh har qanday so'zga, nafaqat so'z, so'z birikmasi, gap, butun boshli bir matnga ham ishora qila oladi. Taqlid so'zda esa bunday imkoniyat mavjud emas. Ko'plab o'quv qo'llanmalarda shuni inobatga olgan holda olmosh mustaqil so'z turkumi sifatida e'tirof etilgan. So'zlar mustaqil bo'lishi uchun, atash ma'nosiga ega bo'lishi, gapda sintaktik vazifa bajarishi

kerak bo'ladi. Olmoshning mustaqil ma'nosi bo'lmagani bilan u barcha mustaqil va nomustaqil so'zlarga ishora qila oladi. Taqlid so'z-chi? Mustaqil so'z bo'lishi uchun unda qanday xususiyat mavjud. Bir ustozdan so'raganimda taqlidlarning soni ko'p ekanligini bunga sabab qilib keltirdi. Lekin soni ko'p bo'lgani bilan u mustaqil emas-ku! Masalan, bolalar bog'chasini misol qilib keltiraman. U yerga juda ko'plab bolalar keladi. Tarbiyachilar esa sanoqli. Agar taqlid so'zlarning soni ko'pligi ularga mustaqil so'z turkumi bo'lishni da'vo qilishga ruxsat berayotgan ekan, nega bog'cha opalar bolalarni o'zlarini tashlab ketishmaydi? Axir bolalar u yerda ko'p-ku!

Shaxsan mening fikrimcha, so'z turkumlarini quyidagicha tasnif qilishni to'g'ri deb bilish va shuni qabul qilish kerak.

- 1) mustaqil so'zlar (fe'l, ot, sifat, son, ravish, olmosh)
- 2) yordamchi so'zlar (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama)
- 3) oraliq so'zlar (undov, taqlid, modal)

Taqlid so'zlar uchta lug'aviy ma'noviy guruhlarga ajratiladi:

- a) harakatni ifodalovchi taqlid;
- b) tashqi ko'rinishni ifodalovchi taqlid;
- c) yorug'likni ifodalovchi taqlid.

Taqlidlar yasalmaydi, balki yasalish uchun asos bo'ladi. Olmoshlar ham xuddi shunday, ular yasalmaydi. Ba'zi olimlar yasama olmoshlar sifatida qo'shma olmoshlarni misol qilib keltiradilar. Lekin tilshunos olim G'ani Zikrillayev bu xususida juda to'g'ri mulohazani ilgari surgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R Sayfullayeva Hozirgi o'zbek adabiy tili
2. B Mengliyev, R Sayfullayeva Hozirgi o'zbek adabiy tili

LEARNING FOREIGN LANGUAGES IS IMPORTANT

Xojimirzayeva Dilfuza Muxammadjon qizi

Abstract: This article discusses the importance of individual characteristics and outcomes of language learners through listening, experiential learning, and observation. The characteristics of language learners and the effective aspects and shortcomings of the methods chosen based on their characteristics are observed. In addition, the article is written about the appropriate use of modern technologies in learning and teaching English, and the teacher's self-research, feeling of responsibility, introducing innovations into the lessons, ensuring that the lesson is interesting and lively.

Key words: individual characteristics, observational learning, listening learning, observational learning, receptive skills, information reception, innovation, technology, efficiency, specialization, information communication.

Introduction: Learning a foreign language is a complex process and some people are different from others it can be observed that they show significant results and learn faster is the truth. Most linguists and language teachers are always individuals are interested in the causes and factors of the differences between and why they are. There is a lot of difference between people learning a second language and learning a foreign language they are surprised. Thus, in the last few decades, the language A number of people working in the field of teaching have analyzed the different results and their effectiveness of students in acquiring and learning a foreign language. to do, describe individual characteristics and their keys to success they spent a lot of effort. Regarding the application of these theories in practice many linguists can form foreign language learning trajectories language learning strategies and methods, the individual of the person they emphasize the important role of their characteristics.

Shunday qilib, O.V Reshetnikova ning so'zlariga ko'ra: Funktsional ichak kasalliklari ko'pincha o'smirlarda, ayniqsa qizlarda kuzatiladi va uning tarqalishi rivojlangan mamlakatlardagi kattalar orasida ko'p uchraydi. Funktsional ichak kasalliklari bemorlarning hayot sifatini pasayishiga va ularni davolash uchun katta xarajatlarga olib keladi. Bu ma'lumotlar 340 nafar bola ortasida o'tkazilgan so'rov natijalariga asoslanadi. O'smirlarda o'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi nisbat kattalarnikiga o'xshaydi. Tarqalishi bolalarda TIS qizlarda 24% va o'g'il bolalarda 14% ni tashkil qiladi [5].

O'smirlarda TIS uchun diagnostika mezonlari yengilroq va kattalarnikidan biroz farq qiladi. Shunday qilib, xususan, ular 12 hafta ichida (keyinchalik ketma-ket) oxirgi 12 oy ichida quyidagi belgilarning mavjudligini o'z ichiga oladi.

1. Qorin bo'shlig'idagi noqulaylik yoki og'riq bilan bog'liq quyidagi uchta belgidan ikkitasi bo'lganda:

- og'riq yoki noqulaylik defekatsiya aktidan keyin to'xtasa;
- og'riqning boshlanishi najas chastotasining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lsa;
- ularning paydo bo'lishi najas shaklining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lsa;

2. Ushbu alomatlarini tasdiqlash uchun tizimli yoki metabolik kasalliklarning yo'qligi hisobga olinadi.

Rim mezonlariga muvofiq, TIS ning uchta klinik ko'rinishi mavjud bo'lib, ularda qorin og'rig'i diareya yoki ich qotishi yoki ich qotishi va diareya birgalikda kelishi hisoblanadi. TIS rivojlanishining sabablari to'liq aniqlanmagan, ammo ma'lumki, uning namoyon bo'lishi bevosita yuqori asabiy faoliyat va shaxsiyat turi holatga bog'liq. Neyropsixik reaksiyalarning tabiatiga ko'ra, TIS bemorlar norma va patologiya o'rtasida oraliq pozitsiyani egallaydi[7,8].

TIS rivojlanishi uchun triggerlardan (qo'zg'atuvchi omil) biri stressdir. Stress duodenal migratsiya motor kompleksi motor faolligining ikkinchi bosqichini chuqur bostiradi. Stress natijasida miya-ichak tizimining xolinergik stimulyatsiyasi sodir bo'ladi, bu esa, o'z navbatida, ichak motorikasini o'zgartiradi, ichak va miyaning haddan tashqari reaksiyasiga olib keladi. TIS rivojlanishida ochlik va ishtahani tartibga soluvchi va ichakning motor va sekretor faolligiga ta'sir qiluvchi opioid peptidlar, enkefalinlar, shuningdek, vazoaktiv ichak polipeptidlari, xoletsistokinin muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, ovqatlanish rejimi va ritmining buzilishi TIS shakllanishiga bevosita ta'sir qilishi mumkin. Juda to'yib ovqatlanish yoki ovqatlardan voz kechish, ovqatlanish paytida shoshqaloqlik, turli xil chalg'itadigan narsalar (o'qish, televizor tomosha qilish, abituriyentlar uchun repetitorlar bilan qo'shimcha darslar, litseylarda chuqurlashtirilgan o'quv dasturlari, kompyuter o'yinlari, ayniqsa yotishdan oldin va boshqalar) me'da-ichak traktining normal refleksini bostirishga olib kelishi mumkin. Bu refleksning yo'qolishi yoki uning sezilarli pasayishi oxir-oqibat ich qotishi va TISga olib keladi[9,10].

Ichakning motor faolligining sekinlashishi yoki kuchayishi, ferment tizimining buzilishi butun ovqat hazm qilish tizimining ishida nomutanosiblikka olib keladi. Natijada, gaz ishlab chiqarish va o'rtasidagi muvozanat gazni yutuvchi mikroflora, disbiyoz rivojlanadi, bemorning ahvolini og'irlashtiradigan, qorin og'rig'i, diareya yoki ich qotishi paydo bo'ladi.

Kamdan - kam hollarda TIS turli darajadagi neyropsik sindromlar bilan birlashtiriladi, masalan, isterik reaksiyalar, depressiya, kanserofobiya, qo'rquv hissi, gipoxondriak o'zgarishlar va hatto o'z joniga qasd qilishga urinishlar kabi holatlarda TIS bilan og'riganlik holatlari ham aniqlangan.

TIS diagnostikasi juda murakkab bo'lib, shifokordan anamnez ma'lumotlarga diqqat bilan e'tibor berishni talab qiladi. Shu bilan birga, bemorlarda uzoq vaqt davomida (bir necha hafta yoki hatto yillar) hech qanday sezilarli belgilar bo'lmaydi, umumiy holatning yomonlashuvining rivojlanishi kuzatiladi. Bemorlarda aniq organik anomaliyalar yoki turli organlar va tizimlarning shikastlanish belgilari aniqlanmaydi.

Odatda TISning klinik ko'rinishlari va turli xil tashqi (hissiy) ta'sirlar o'rtasidagi aniq munosabatlarni kuzatish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, TISning klinik ko'rinishi salbiy (turli xil depressiya, stresslar) va ortiqcha ijobiy his-tuyg'ular bilan ham kuzatilishi mumkin. TIS organik patologiya emasligi sababli, tashxis qo'yish uchun ovqat hazm qilish tizimining boshqa barcha kasalliklarini istisno qilish kerak[8].

Ta'sirlangan ichak sindromining diagnostikasi klinik belgilarning barqaror to'plamini baholashga asoslanadi. Asosan kuzatiladigan belgi, qorinning pastki qismida og'riq bo'lib, uni ichaklar morfologik va metabolik kasalliklarida uchraydigan og'riqdan farqlay olish kerak. Qorin og'rig'i klinik ko'rinishning muhim qismidir va uurlu xil intensivlikda bo'lishi mumkin: yengil noqulaylikdan, doimiy va hatto chidab bo'lmas og'riq va ichak sanchiqlari uchrashi mumkin. TIS bilan og'rikan bemorlar ovqatdan so'ng darhol og'riq paydo bo'lishi va qorinda shish bilan xarakterlanadi. Og'riq ko'p holarda, defekatsiya va gazlar o'tgandan keyin pasayadi[3,4].

Vegetativ va nevrologik kasalliklar (migren, bel sohasida og'riq, tomoqdagi yot modda hissi, uyquchanlik yoki aksincha, uyqusizlik, dizuriya) shikoyatlari; qizlardagi hayz sikli, bemorlarning yarmidan ko'pida mavjud. Odatda, bemorlarning 80% dan ortig'i TIS turli organlar va tizimlarning organik shikastlanishining klinik, instrumental yoki laboratoriya belgilari bo'lmasa ham, ovqat hazm qilish organlarining birgalikdagi funktsional buzilishlarining alomatlari bo'lishi mumkin (ko'ngil aynishi, qusish, o'ng epigastral sohada og'riq). Bundan tashqari, bemorlarning 15-30% psixopatologik buzilishlarning turli belgilarini (depressiya, tashvish belgilari, fobiyalar, isteriya, vahimalar) borligini ko'rsatadi[6].

TISda diareya ustun bo'lgan holatda davolash ko'p miqdorda qalin o'simlik tolalarini o'z ichiga olgan ovqatlar, dukkaklilar (fermentatsiya jarayonlarini keltirib chiqaradigan ovqatlar bundan mustasno) ni man qiluvchi parhezga asoslanadi. Dori terapiyasiga an'anaviy o'simlik vositalarini (gilos, qoraqat) kiritish maqsadga muvofiqdir. TISda diareyaning uzoq muddatli intervalgacha xarakterini hisobga olgan holda, loperamid kabi opioidlardan surunkali foydalanish peristaltikani doimiy zaiflashuvga olib kelishi mumkin, bu esa, o'z navbatida, ovqat hazm qilish jarayonida hosil bo'lgan toksinlarning so'rilishini rag'batlantiradi. Bu esa o'z navbatida, tananing intoksikatsiyasining kuchayishiga va jarayonning kuchayishiga olib keladi. Diareya ustunligi bilan kechuvchi TIS uchun tanlangan dorilar sitomukoprotektorlari adsorbentlardir. TIS bilan birga keladigan diareyada, turli xil yo'g'on ichakning disbiyozi ustunlik qiladi. Pro- va prebiyotiklardan foydalanish TIS bilan birga keladigan diareya bilan, mikrobiotsenozni normallashtirish uchun, qoida tariqasida, kutilgan natijalarni bermaydi. Buning sababi shundaki, diareya paytida shilliq qavatning himoya qavati buziladi, uning qalinligida mikroorganizmlar yashaydi. Shuning uchun, shilliq qavati buzulgan ichak yuzasi mikroorganizmlar kolonizatsiyasi faqat vaqtinchalik ta'sirga ega (faqat mikroorganizmlarni o'z ichiga olgan dori-darmonlarni qabul qilish davrida). TISni davolashda shilliq qavatga kompleks ta'sir qilish kerak - shlaklar va toksinlarni olib tashlash bilan birga, ichakning shilliq qavatini tiklash kerak.

Xulosa. Shuni esda tutish kerakki, terapiyaning ta'siri yaxshi bo'lsa ham, qaytalanish davrida ham, remissiya davrida ham bemorni doimiy monitoring qilish

zarur. TIS rivojlanishining oldini olish uchun psixo-emotsional ortiqcha bosimni maksimal istisno qilish bilan turmush tarzini normallashtirish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chiba N., Bernard L., OBrien B.J. et al. A Canadian physician surB vey of dyspepsia management // Can J Gastroenterol. — 1998. — 12. — P. 83–90.
2. Talley N.J., Silverstein M., Agreus L. et al. Technical review. Evaluation of dyspepsia // Gastroenterology. — 1998. — 114. — P. 582–595.
3. Talley N.J., Stanghellini V., Heading R.C. et al. Functional gastroB duodenal disorders // Gut. — 1999. — 45. — P. 1137–1142.
4. Clouse R.E., Richter J.E., Heading R.C. et al. In: Drossman D.A., Corazziari E., Talley N.Y., et al. Eds. Rome II: The functional gastroinB testinal disorders. 2nd ed., McLean VA: Degnon Associates, 2000.
5. Решетников О.В., Курилович С.А., Денисова Д.В. и др. РаспроB странённость и факторы риска развития синдрома раздражённоB го кишечника у подростков: популяционное исследование // ТеB рапевтический архив. — 2001. — № 2. — С. 24–29.
6. Thompson W.G., Longstreth G.F., Drossman D.A. et al. Functional bowel disorders and functional abdominal pain. Rome II: A Multinational Consensus Document on Functional Gastrointestinal Disorders // Gut. — 1999. — 45(Suppl. II). — P. II43–II48.
7. Расулова С. Х., Ганиева Ш. Ш. Клинико-Иммунологические Особенности Синдрома Раздраженного Кишечника При Коморбидности //Amaliy va tibbiyot fanlari ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 124-127.
<https://sciencebox.uz/index.php/amaltibbiyot/article/view/4394>
8. Xalimovna R. S. (2022). O`Smirlar Orasida Ta`Sirlangan Ichak Sindromini O`Rganish. *Amaliy va tibbiyot fanlari ilmiy jurnali*, 1(7), 132–135. Retrieved from <https://www.sciencebox.uz/index.php/amaltibbiyot/article/view/4926>
9. Расулова Саодат Халимовна."Педиатрические аспекты этиологии и патогенеза синдрома раздраженного кишечника." *Gospodarka i Innowacje*. 21 (2022):363-367.
<http://www.gospodarkainnowacje.pl/index.php/poland/article/view/155>
10. Rasulova S.X. Current Opinions on Etiopathogenesis, Clinical Picture,Diagnosis and Treatment of Irritable Bowel Syndrome. *European journal of life safety and stability (ejlss)* ISSN 2660-9630Volume 13, 2022
<http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/408>

BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR . YEVROPALIKLARNING DASTLABKI DENGIZ SAYOHATLARI. XRISTOFOR KOLUMB VA UNING SAFARLARI. AMERIKANING OCHILISHI

Jumaboyeva Go'zal To'liboy qizi

Nukus davlat pedagogika instituti

Tarix fakulteti tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi

Safarboyeva Zebo Ulug'bek qizi

Nukus davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari bakalavr yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buyuk geografik kashfiyotlar .Yevropaliklarning dastlabki dengiz sayohatlari. Xristofor Kolumb va uning safarlari. Amerikaning ochilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Buyuk geografik kashfiyotlar, Amerika, Xristofor Kolumb, dengiz, ekspeditsiyasi, savdo yo'llari.

Genrix dengizchi. O'rta yer dengizda monopol vaziyatga (huquqqa) ega bo'lganligi tufayli Levant savdosidan har holda katta foyda olayotgan italiyalik savdogarlar emas, balki G'arbiy Yevropaning Atlantika okeaniga yaqin turgan Portugaliya va Ispaniya davlatlari Hindistonga boradigan yo'lni qidirib topishdan ko'proq manfaatdor bo'lib chiqdilar. Yevropaliklar, aniqrog'i portugaliyaliklar XIV asrdan boshlab savdo yo'llarini ochishni boshladilar. XIV asrning birinchi yarmiga kelib Portugaliya va Flandriya o'rtasida dengiz savdo aloqalari o'rnatildi. XIV asrning ikkinchi yarmiga kelib portugaliyaliklar Afrikaning Shimoliy – G'arbiy sohillarigacha (Marokko sohillari) yetib bordilar. Genrix 1394 yilda qirol Juan I va Juna Guntalarning to'rtinchi farzandi bo'lib tug'ildi. U yoshligidan arablar va portugallar o'rtasidagi urushlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanib va Afrika haqidagi ajoyib hikoyalarni tinglab katta bo'lgan edi. XV asr boshiga kelib portugaliyaliklar 20 yoshli shahzoda Genrix boshchiligida ommaviy ekspeditsiyalarni boshlab yuborishdi. Keyinchalik «Dengizchi» laqabini olgan shahzoda Genrix o'zining kashfiyotlari bilan portugaliyalik dengizchilarning yangi dengiz yo'llarini ochishlariga katta ta'sir ko'rsatdi. 1415 yilda Portugaliya qo'shinlari O'rta Yer dengizining Gibraltar bug'ozidan chiqish joyidagi mavritanlarning Seuti portini ishg'ol qildi. Ekspeditsiyada 20 yoshli Portugaliya shahzodasi, Genrix Enrike ham bor edi. 1415 yilda Marokka qal'asini ishg'ol qilishda qatnashgan Genrix risarlik unvonini oldi. Seutida u g'arbiy Afrika to'g'risida bir qancha qimmatli ma'lumotlarni bilib oldi. Bu ma'lumotlar uning hayoliga «Bibliya» afsonasidagi Ofir mamlakati, undagi Quddus (Iyerusalim)

ibodatxonasini, oltindan qurgan podsho Solomonni olib keldi. U oltinga to'la daryolarga dengiz yo'li orqali borish maqsadida g'arbiy Afrika bo'ylab safarga chiqdi. Genrix Seutidan vataniga qaytgandan keyin, yarim harbiy va yarim monaxlar jamiyati bo'lgan portugaliyaliklarning «Xristo Ordeni»ga bosh bo'lib qoldi. U Portugaliyaning janubiy – g'arbidagi Sogrish shahriga ko'chib keldi va bu yerda orden mablag'i hisobiga observatoriya va dengizchilar maktabini tashkil qildi. Bu davrda portugal dengizchilari hali dengiz harakatlari bilan ishlashni bilmaganlar. Shu sababli Genrix bu maktabga u katoloniyalik mashhur kartograf Fereruni taklif qildi. Keyinchalik bu maktabdan o'qimishli dengizchilar yetishib chiqa boshladilar. Qirq yillar davomida Genrix ketma-ket Afrikaning Atlantika qirg'oqlariga oltin va qullar keltirish uchun ekspeditsiyalar jo'natadi. Hindiston juda ham uzoq edi, lekin afrikalik qullar va Afrika oltinlari nisbatan yaqin edi. XV asrning 40-yillarida shahzoda Marko Polo kitobi bilan tanishib chiqadi va Hindistonga boradigan dengiz yo'li haqidagi ma'lumotlarni oladi. Portugaliyaliklar tezda Nan va Boyador bug'ozlarini kashf qildilar. 1419 yilda Genrix Dengizchi tomonidan Boyadorga yuborilgan ikki portugaliyalik dvoryanlar adashib qolishib yangi, odam yashamaydigan ajoyib orolchaga kelib qoldilar. Bu orolni shahzoda «Madeyra» (Madeyra-o'rmon) deb nomladi. Shundan keyingi qator yillar davomida portugaliyalik dengizchilar katta tajribaga ega bo'ldilar. 1432 yilda Portugaliya qirg'oqlaridan 1400 km. g'arbdagi Azor orollarining birinchisi topildi. 1434 yilda portugaliyalik bir dengizchi Kanar orollaridan 200 km janubda joylashgan Boyador burniga tushishga muvassar bo'ldi va Genrixga bu yerda o'sgan gullardan namunalar keltirdi. Keyingi 7 yil davomida portugaliyaliklar, yana janubiy – g'arbga siljib, Brakku burnigacha yetib bordilar. 1443 yili Nunyu – Triston boshliq portugaliyaliklar ekspeditsiyasi Blokko burnidan o'tdi va Argin orollarini kashf etdi. Negrlarni ovlash g'arbiy Afrika qirg'oqlaridagi kashfiyotlarni tezlashtirdi. Portugaliyaliklar Arginda birinchi qullar sotadigan faktoriyalarni qurish bilan birga, 1445 (1446) yili Yashil burun orollarini ochdi. Yashil burun Argindan janubga 800 km.ga cho'zilgan. Keyinchalik bu burunni Diash ham kashf etgan edi. Kashf qilingan yerlarda portugallar Yevropa tovarlariga oltin parchalari, fil suyagi, ziravolar almashtirib olishardi. Lekin ularni qiziqtirgan asosiy narsa negrlarni ovlash edi. Qirq yil davomida Genrix Dengizchi ekspeditsiya orqasidan ekspeditsiyalarni Afrikaning Atlantika qirg'oqlariga oltin va qullar keltirish uchun to'xtovsiz yuborib turdi. Genrix tomonidan yuborilgan ekspeditsiya Portugaliyaga Atlantika okeanining sharqiy qismidagi deyarli barcha arxipelaglarni qo'shib oldi, faqatgina Kanor orollari uzoq tortishuvlardan so'ng Ispaniya qo'liga o'tdi. Kashf qilingan orollar Genrix hayot vaqtidayoq metropoliyaga katta foyda keltirdi. Madeyrada shakar qamish o'stirish boshlandi. Azor va Yashil burun orollarida bo'yoq tayyorlaydigan o'simliklar topildi. Genrix Dengizchi sayohatlari geografik bilimlarni kengaytirish nuqtai nazaridan ham juda ahamiyatli edi. Uning davrida Afrikaning

janubiy qirg'oqlari tekshirildi va 3500 km. dan iborat Gibraltar qo'ltig'idan hozirgi Gvineya hududigacha bo'lgan hududlar kartaga kiritildi. Shu paytdan boshlab Afrika maydonlaridan qora tanlilarni ovlash boshlandi. Ularni sotish esa foydali kasb edi.«Xrista ordeni»ning boshlig'i sifatida shahzoda Genrix Rim papasi Yevgeniy IV dan qul savdosi uchun sanksiya (ruxsat, rozilik) olishga intildi. Portugaliya qirol papadan «Hindiston va Efiopiya savdosining hukmdori» degan yorliq olishga muvaffaq bo'ldi. Keyingi yillardagi izlanishlar natijasida portugaliyaliklar tomonidan Fil suyagi qirg'oqlari, Oltin Qirg'oq kashf etildi. 1460 yilda Genrix Dengizchi vafot etdi. U Portugaliya tarixida katta iz qoldirdi. 45 yillik faoliyatida, u ko'plab ajoyib dengiz safarlarini uyushtirdi va ko'plab tajribali dengizchilarni yetishtirib chiqardi. U tufayli Portugaliya savdo floti dunyoda birinchi o'ringa chiqib oldi. Genrix Dengizchi ekspeditsiyalarining natijalari va ahamiyati. Shahzoda Genrix tomonidan jo'natilgan ekspeditsiyalar Atlantika okeanining sharqiy qismida joylashgan barcha yirik arxipelaglarni Portugaliya hududiga qo'shib oladilar. Faqatgina Kanar orollari uzoq yillar tortishuvlardan so'ng Ispaniya hududiga o'tadi. Portugaliya orollari hali Genrix hayot davridayoq Metropoliyaga ko'plab daromadlar keltiradi. Genrix dengizchi harakatlari Afrikaning g'arbiy qismini o'rganishga juda katta yordam berdi. Uning davrida Afrikaning g'arbiy qirg'oqlari qo'lga kiritilgan va xaritadan joy olgan. Genrix Dengizchi Afrikadan minglab qullarning olib kelinishiga sababchi bo'ldi. Uning bu harakatlari ishchi kuchiga bo'lgan talabni bir qadar qondirdi. Va nihoyat «Xristos ordeni» homiyligi ostida shahzoda Genrix Rim papasi Yevgeniy IV dan qul savdosini olib borishga ruxsat so'radi va undan rozilik oldi. XV asrning 80 – yillariga kelib Portugaliya hukumati o'z diqqatini yana Afrikaga qarata boshladi. 1482 yilda Oltin Qirg'oqda birinchi Portugaliya koloniyasi bo'lgan Li Mina barpo etildi. Keyinchalik Xristofor Kolumb G'arbiy Hindistonni kashf qilib, Ispaniyaga u yerlarni kolonizatsiya qilish huquqi tegkach, Portugaliya hukumati Sharqiy Hindistonga hukmronlik qilish huquqini qo'lga kiritishga shoshildi. 1497 yili Portugaliya tomonidan dengiz yo'llari bo'ylab Afrikani aylanib o'tib, Hindistonni tekshirib kelish uchun eskadra yuborilgan. Bartolomeu Diash (1450-1500). Bartolomeu Diashning to'liq ismi Bartolomeu Diasha di Navalit bo'lib, uning tug'ilgan sanasi to'g'risida aniq ma'lumot saqlanib qolmagan. Uning XV asrning ikkinchi yarmida yashaganligini isbot etuvchi ma'lumotlar ko'p. Bartolomeu Diash Afrikani o'rganishga juda katta hissa qo'shgan yirik dengiz sayohatchilaridan biri hisoblanadi. Bartolomeu Diash 1487 yilda Hindistonga borish uchun Gvineya qo'ltig'i, yaxshi Umid burniga (ikkalasi ham Afrikada) sayohat uyushtirdi. Uning bu qilgan sayohati Yevropaga Afrikaning eng janubiy qismi haqida deyarli to'liq ma'lumot berdi. Uning sayohati kelgusida yangi dunyoning ochilishida zamin bo'lib xizmat qildi. Diashning «Yaxshi Umid» burnida mahalliy aholi bilan birinchi uchrashishi sal bo'lmasa kema ekipajining holokati bilan tugayozdi. Mahalliy aholi ularni tosh otib kutib oladi. Diash ekspeditsiyasi Janubiy

Afrikanani aylanib o'tib Hind okeaniga chiqdi. Lekin uzoq davom etgan og'ir yo'l mashaqqatlaridan toliqqan dengizchilar safarni davom ettirishdan bosh tortdilar. Portugallarning keyingi Braziliyani ochishga bo'lgan urinishlari davrida 1500 yil 24 mart kuni kuchli dengiz to'foniga duch kelgan kema halokatida Diash ham halok bo'ldi. XVI asrda yashagan mashhur ingliz dengiz sayohatchisi Frensis Dreyk Bartolomeu Diash tomonidan tadqiq etilgan «Yaxshi Umid» burni haqida shunday degan edi. «Ushbu burun dunyoda biz ko'rgan burunlar ichida eng buyuk, eng chiroyli va eng ajoyibidir». Kovilyan ekspeditsiyasi. Portugaliya qiroli Juan II tomonidan 1487 yilda Misrga Kovilyan boshchiligida ekspeditsiya yuborildi. Ekspeditsiyaning asosiy maqsadi Hindistonga boradigan qisqa quruqlik yo'lini topish edi. Kovilyan Qohiradan tuyalarda Qizil Dengizga yetib boradi. U quruqlikdagi qisqa yo'lni ko'p izlab o'tirmasdan, arab kemasiga o'tirib Hindistonning janubiy-g'arbiy qismiga yetib keladi. Hindistonda Janubiy-Sharqiy Afrikaga suzuvchi arab dengizchilari bilan tanishadi va o'zi ham shu yerga borishni hohlaydi. Arab kapitanlaridan biri uni o'z kemasiga olishga rozilik beradi. Bu sayohat davrida Kovilyan va uning sheriklari Modagaskar orolida ham bo'ladilar. Misrga qaytgach Kovilyan Portugaliya hukumatiga xat yozib o'z sayohatini to'liq bayon qiladi. Uning yozgan xatidagi ma'lumotlar Bartolomeu Diashning Janubiy Afrikada Dengiz yo'li orqali Hindistonga borish mumkin, degan fikrini tasdiqlar edi. Kovilyan xatidagi ma'lumotdan so'ng 1490 yilda Bartolomeu Diash tomonidan ochilgan hududlar xaritada belgilandi va shu narsa aniq bo'ldiki, Lissabondan Afrikaning eng chekka nuqtasiga faqatgina Atlantika okeani orqali borish mumkin ekan. Xristofor Kolumb dengizda yaxshi suzish malakasini O'rta Yer dengizida o'rganadi. Shuningdek, u xarita chizish va tuzishni, geografiya, matematika va astronomiyani qunt bilan o'rgandi. Xuddi shu davrda Xristofor uzoq dengiz safarining rejalarini tayyorladi. U o'z safarini amalga oshirish maqsadida Yevropada birinchi bo'lib jahon xaritasini tuzgan florensiyalik Paolo Toskanello bilan aloqa o'rnatdi. Toskanello unga xat orqali o'zi tuzgan xaritaning bir nus'hasini yuboradi. Kolumb bu xaritani o'rganib chiqdi va 1481 yil oxiri – 1482 yil boshlarida Toskanelloga katta hayajon bilan xat yozib, yana ham ko'proq ma'lumotlar yuborishni so'raydi. Xristofor Kolumbning istaklari o'sha davrdagi Ispaniya va Portugaliya qirollari manfaatiga mos tushgan edi. Bu davlatlar xukmdorlari ham geografik kashfiyotlar natijasida yangi yerlarga ega bo'lish va xazinani oltinga to'ldirishni orzu qilardilar. Shu maqsadda ispan va portugal kemalari Afrika qirg'oqlarini kezib yurardilar. 1484 yil Portugaliyada «matematiklar kengashi» tuzilib, unga rejalashtirilgan dengiz sayohatlarining loyihalarini muhokama qilish va amalga oshirish vazifasi yuklatildi. Xristofor Kolumb ham afsonaviy Sipanga (Yaponiya) va Hindiston orollariga G'arbiy Okean orqali sayohat qilish loyihasini tuzdi va o'z loyihasini Portugaliya qiroli Juan II ga taqdim etdi. Juan II bu loyihani «matematiklar kengashi» ga yubordi. Kengash Kolumbni hayolparast deb loyihasini qaytardi. Bundan

tashqari Portugaliya qiroli Juan II ga Kolumbning o'zi uchun katta mukofot talab qilishi ham yoqmagani edi. Bundan ranjigan Xristofor Kolumb o'z rejalarini Ispaniya qiroli yordamida amalga oshirish maqsadida 1485 yilda Ispaniyaga ko'chib ketdi. Bundan tashqari u yerni dumaloq degani uchun din ahllari tomonidan ham ayblanishi Kolumbning ko'chishini tezlashtirgan omillardan biri bo'ldi. 1486 yilda Kordovada yashagan yillari Kolumb boy dehqonning qizi-Anna Nunyes Arama bilan tanishib, undan Fernando ismli o'g'il ko'radi. Fernando keyinchalik yirik kosmograf va «Admiral Xristofor Kolumbning hayoti va ishlari tarixi»ning muallifi bo'ldi. Ispaniyaga kelgan Kolumb 1492 yilda o'z loyihasini Ferdinand va Izabellaga taklif qildi. Loyiha Ispan hukmdorlariga ma'qul keldi. Ispan hukmdorlari tomonidan 1492 yil aprel oyida Kolumbga dvoryanlik unvoni berildi va shu paytdan e'tiboran «don Kristoval Kolon» degan ism oldi. Ispan qirollari «Dengiz va okeanlarning xo'jayinlari sifatida Kolumbni» «o'zi kashf etgan barcha orol va materiklarning admirali»², vise – qiroldir deb e'lon qiladilar va bu unvonni abadiy uning vorislariga berishga ham rozilik bildirdilar. Buning evaziga Kolumb kashf qilgan joylaridan topilgan oltin va qimmatbaho buyumlarning o'ndan to'qqiz qismini qiroldir xazinasiga topshirishi kerak edi. Kolumb ixtiyoriga ikkita kema berildi. Kolumb uchinchi kemani ham safarga tayyorladi. Bu ish uchun mablag' to'plashda unga paloslik mohir dengizchilar, aka – uka Pinsonlar yordam berdilar. Natijada, 1492 yilda (3 avgust) Ispaniyaning Palos gavanidan Xristofor Kolumbning birinchi dunyo sayohati boshlandi. Eng katta kema «Santa Mariya»da admirallik bayrog'i ko'tarildi va unga Kolumbning o'zi boshchilik qildi. Ikkinchi kemaning nomi «Pinto» bo'lib unga Martin Pinson kapitan etib tayinlandi. Uchinchisidiki «Ninya» - («Go'dak») bo'lib, unga Martin Pinsonning ukasi Visente Pinson kapitan qilib tayinlandi. Butun uchta kema ekipaji 90 kishidan iborat edi. Kemalar ekipaji Palos aholisi orasidan majburan tanlanadi. Shuningdek ekipajning bir qismi oliy zotlarni haqorat qilganliklari uchun bir yillik surgun ishlariga mahkum qilinganlar va jinoyatchilardan tarkib topgan edi. Kolumbning birinchi ekspeditsiyasi qanday maqsadni ko'zlagan edi, degan savolga turli manba va ma'lumotlarda turlicha javoblar mavjud. Ayrim ma'lumotlarda Kolumbning asosiy maqsadi Osiyoga borish va u yerdagi xalqlar bilan savdo aloqalarining yo'lga qo'yish edi, deyiladi. Ayrimlarida esa, bu safardan maqsad Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan o'lja undirish edi, deb ko'rsatiladi. Kolumbning birinchi ekspeditsiyasi ekipaji tarkibi xristian bo'lmagan mamlakat bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yish uchun tanlab olingan edi, deyishda ham qisman jon borligini ko'rsatadi. Yirik bosqinchilik tadbirlari uchun ushbu floteliya ko'zlanmagan edi: u zaif qurollangan, ekipaj soni esa ozchilikni tashkil etardi. Bundan tashqari ular orasida professional harbiylar ham yo'q edi. Shuningdek bu ekspeditsiya o'z oldiga xristian dinini targ'ib qilishni ham maqsad qilib qo'ymagan edi, ekspeditsiya ishtirokchilari orasida birorta ham ruhoniylar va monaxlar yo'q edi. Bu holatni ushbu mavzuni o'rgangan

barcha tarixchilar e'tirof etishadi. Aksincha, Kolumb odamlari ichida cho'qintirilgan yahudiy bo'lib, u arab tilini yaxshi bilar edi. Undan tilmoch sifatida foydalanmoqchi bo'lishganlar. Shunday qilib, qirollar ham Kolumb ham «Indiy»lar bilan savdo sohasidagi aloqalarni yo'lga qo'yish maqsadini ko'zlagan edi, degan fikrga ham kelish mumkin. Ammo bu fikr faqat Xristofor Kolumbning birinchi ekspeditsiyasi tarixiga tegishlidir. Birinchi uch kun davomidayoq kuchli dengiz bo'roni kemalarni ochiq okeanga olib chiqib ketdi va Xristofor Kolumb boshqarishni qo'ldan yo'qotdi. Keyingi kunlardagi kemalar tezligining nihoyat darajada tezlashishi ekipaj a'zolarini xavotirga tushirdi. Kolumb esa o'z kundaligida bosib o'tilgan masofaning ko'p qismini yashira boshladi. Masalan: 1492 yil 10 sentyabrda yozilgan ma'lumotda 60 mil masofa bosib o'tilganligi ma'lum qilindi. Bu ayrim adabiyotlarda «odamlarda qo'rquv xissini uyg'otmaslik» uchun qilingan tadbir edi, deb qaraladi. Shunisi kishining diqqatini o'ziga tortadikim, Xristofor Kolumb aniq yo'nalishni yo'qotgan vaqtda, ko'pincha kema ustidan uchib o'tadigan qushlar galasi ketidan suzishni buyuradi. Kolumb kundaligidagi yozuvlardan ma'lum bo'lishicha (masalan; 7-oktyabrda yozuvlardan-P.Sh) portugaliyaliklar qator orollarni aynan qushlar parvozini kuzatish oqibatida ochganlar. Dengizda aniq yo'nalishni yo'qotgan Xristofor Kolumb ekspeditsiyasi 1492 yilning 12-oktyabr kuni Karib dengizida Bagam orollaridan birini topdi. Xristofor Kolumb orol (bu orol mahalliy xalq tomonidan Guanaxani deb atalgan) qirg'og'iga to'qnashishi bilan uni San – Salvador, ya'ni «Xaloskor avliyo» deb ataydi (bu orol hozirgacha shu nom bilan atalib kelmoqda). Kolumb va uning dengizchilari kemalaridan tushishdilar. Bu yerlik aholi ularni iliq kutib olishdi. Bu to'g'rida Kolumb o'zining yon daftarida shunday yozuvlar qoldirgan: «Men ularga arzimas sovg'alar berdim, ular juda mamnun bo'ldilar. Bizlarga to'ti qushlar, o'ram iplar va boshqa narsalar hadya qilishdi. Kishilari chiroyli, kelishgan, o'zlarini qora bo'yoqlar bilan chizib tashlagan, egnida hеч qanday kiyimi yo'q. Qurol – aslaha va temirlar haqida hatto biror bir tushunchaga ega emaslar». Mahalliy aholining ba'zi birlarining Kolumb burunilariga oltin baldoqlar taqib olganlarini payqadi. Ularning tushintirishlaricha oltin janub tomonda edi. Kolumb odamlari qayiqlarga o'tirib, oltin izlab boshqa orollarni ham topdilar. Ular tomonidan kashf qilingan Bagam orollaridan biriga Izabella (hozir Krukad - Ayland) deb nom berildi. Bu yerdagi aholi bir oz madaniylashgan ko'rinishda edi. Ularda yengil – yelpi kiyimlar, ba'zi ayollarda taqinchoqlar ham bor edi. Bu yerdagi g'aroyib o'simliklar, mevalar Kolumbni hayratda qoldirdi, chunki ilgari u bunaqa narsalarini uchratmagan edi. Shundan so'ng ular Kuba orollarini kashf qildilar. Xristofor Kolumb mahalliy aholining tilida «Kubo oroli» deb atalgan hozirgi Kubaga 1492 yilning 28-oktyabrda yetib keldi. Orol juda katta bo'lib, bu yerdagi katta – katta uylarda yuzlab odamlar birgalikda yashar edilar. Yevropaliklar bu yerda tamaki chekishni, paxtadan qo'pol matolar to'qilishini, madaniy o'simliklardan esa makkajo'xori va kartoshkani ko'rdilar. Ammo bu yerlarning qayer ekanligini bilmagan

Kolumb o'zini Xitoyning yarim orollaridan birini ochdim, deb o'yladi. Ammo bu yerda oltin ham, shaharlar ham, podsholiklar ham yo'q edi. Kuba orollarida yevropaliklar juda ko'p ekin turlarini ko'rdilar, ammo paxtadan boshqa hech qaysi o'simlikni tanimadilar. Mahalliy aholi ularga chekish uchun barglar olib chiqdilar va yevropaliklar tamaki chekishni birinchi marta ko'rdilar. Undan tashqari sayohatchilar bu yerda makkajo'xori va kartoshka ekinlari bilan ham tanishdilar. 1492 yilning dekabr oyida Gaitida Kolumb katta bir orolni topdi va unga Espanola «Kichik Ispaniya» deb nom qo'ydi. Bu orolda boshqa orollarga qaraganda oltin ko'proq uchradi. Shu sababli ekipajning 39 a'zosi o'z hohishlari bilan shu orolda qoldilar. Bu orolda Kolumb doimiy koloniyaga asos soldi. Bu yerda holokatga uchragan «Santa - Mariya» ni Espanoloda qoldirib Xristofor Kolumb 1493 yil «Ninya» kemasida Ispaniya tomon yo'l oldi. U bilan birga «Pinto» ham yo'lga chiqdi. (Kolumbdan so'ng Palos portiga yetib kelgan «Pinto» kemasining kapitani bir necha kundan keyin vafot etdi.). 1493 yilning mart oyida Xristofor Kolumb Ispaniyaga bir oz oltin va Yevropada hali hech kimga ma'lum bo'lmagan orol aholisidan bir necha kishini olib keldi. Xristofor Kolumb o'zi kashf etgan yerlarni Hindistonning bir burchagi bo'lsa kerak deb o'ylab ularni «Indiy» deb atadi. Ispaniyaga olib kelgan kishilarni «indios» «indeyes» (hindular) deb atay boshladilar. Hozirgacha ham Amerikaning tub joy aholisini «indeyes»lar ya'ni «hindular» deb aytib keladilar. Kolumb tomonidan «g'arbiy Hindiston»ning kashf etilishi to'g'risidagi ma'lumotlar portugaliyaliklarni sarosimaga solib qo'ydi. Shundan so'ng darhol 17 ta kema, shu jumladan 3 ta katta kemadan iborat yangi floteliya tuzildi. Bu kemalarda 1500 kishi safarga otlandi. Bu ikkinchi dengiz safarining boshlanishi edi. Eng katta kema bo'lgan «Mariya Galante» (Golonte)da Kolumb admiral bayrog'ini ko'tardi. Bu kemalarga o'sha vaqtda Yevropada mavjud bo'lgan barcha chorva mollari, otlar va eshaklar kelgusida yangi orollarda ko'paytirish uchun ortildi. Shuningdek ayrim o'simlik urug'lari ham olindi. Kolumb bilan birga yangi yerlarda baxt topish uchun o'zi qashshoqlashib qolgan bo'lsada hali g'ururdan tushmagan yuzlab dvoryanlar, o'nlab amaldorlar, okeanning nargi tomonida yashovchi «majusiylar» ga xristian dinini qabul qildirish lozimligini maqsad qilib olgan ruhoniylar va monahlar safarga jo'nadilar. Turli manbalarda berilgan ma'lumotlarga ko'ra kemalarda 1,5 mingdan 2,5 minggacha kishi bo'lgan. 1493 yil 25 sentyabrida Kolumbning ikkinchi ekspeditsiyasi Kadis shahridan yo'lga chiqdi. Ikkinchi dengiz ekspeditsiyasi harbiy jihatdan ham puxta tayyorlandi. Uning harbiy kuchlariga Las Kasosning amakisi Fransisko de Penyalasa qo'mondonlik qildi. Ikkinchi sayohati vaqtida Kolumb Janubiy Amerikadagi bir qancha orollarni ochib, ularga «Dominiko» (kashfiyot yakshanba kuni qilingan edi. ispancha yakshanba - dominika), «Gvadalupa» (Gvadelupa) (Bu mashhur ispan monastiri sharafiga qo'yilgan), «Virgin» («O'n bir ming qiz oroli» - ispancha qiz - virxen), «Boriken» va «San-Xuan - Bautista» deb nom

berdi. Keyinchalik «San-Xuan - Bautista» oroliga «Puerto Riko» (Boy ko'rfaz) deb nom beriladi.

Xulosa:

Shundan so'ng u yana Espanologa o'tdi. Bu yerda o'zlari qurdirgan Navidad fortining vayron bo'lgan manzarasini va o'zi qoldirgan odamlarning (39 kishining) murdasini suvdan topdi. Mahalliy aholidan yetarli darajada o'ch olib bo'lgach, Kolumb Espanolo orolida Izabella degan shahar qurdiradi. Ammo tezda bu yerda yuqumli kasallik tarqaldi va Kolumb odamlarining bir qismi ham qirilib ketdi. Kasallik tarqalishining kuchayishi yevropaliklarni orolning janubiy qirg'og'iga ko'chishga majbur qildi va 1496 yilda shu yerda Santo – Domingo (hozirgi Nofid - Truxilo) shahriga asos solindi. Keyinchalik bu shahar orolning poytaxti bo'lib qoldi. Ammo sharoitning noqulayligi tufayli dengizchilar oziq-ovqatni yaxshi saqlay olmaydilar. Shu sababli ularga ocharchilik xavf sola boshlaydi. Kolumb noilojlikdan Antonio Torres boshchiligida 12 kemani Ispaniyaga qaytarib yuborishga majbur bo'ldi. U Ispaniya hukmdorlariga yozgan xatida bu yerda ko'p miqdorda oltin borligidan xabar beradi va ulardan o'zlariga zarur oziq-ovqat, chorva mollari va mehnat qurollarini yuborishni so'raydi. Kolumb 500ga yaqin kishini 5 ta kema bilan Espanoloda qoldirishga qaror qildi, qolgan kishilarni 12 kemada 1494 yilning boshlarida Ispaniyaga qaytarib yubordi. Kolumb Ispaniyadan chorva mollari, oziq-ovqat va qishloq xo'jalik asboblari orilgan kemalar yuborishni so'radi. Ikkinchi ekspeditsiyasi davrida Kolumb Ispaniyaga bir oz oltin, mis, qimmatbaho yog'och va bir necha yuz «hindu» qullarni jo'natdi. Lekin bu yuborilgan narsalar uning ekspeditsiyasiga ketgan harajatlardan juda kam edi. Shu sababli qirollar u bilan tuzgan shartnomani buzdilar va oziq – ovqat hamda boshqa kerakli narsalarni yubormay qo'ydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Магидович В. И. Очерки по истории географических открытий. Т. II. Москва-1983[1]
2. Olimjon Bo'riyev Tarixiy geografiya Toshkent-2017[2]
3. Z.Sayidboboyev Tarixiy geografiya Toshkent-2019[3]
4. A.Mamadiyorov.Sh.Ibragimov.Q.Sag'dullayev.M.Sattorov Geografiya Toshkent-2020[4]

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Abdurahimova Mashrabxon Maxmudovna

*Farg'ona shahar O'zbekiston Respublikasi Prezident ta'lim muassasalari agentligi
Farg'ona shahridagi Prezident maktabi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili va adabiyot darslarida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish hamda ularning bugungi ilm-fan uchun ahamiyati haqida so'z boradi. Maqola davomida o'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib kelishi va bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiqligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, yangilik, jamiyat taraqqiyoti, interfaol metodlar

Hozirgi kunda barcha sohada tub yangilanishlar sodir bo'layotgan bir paytda ta'lim sohasida ham tubdan o'zgarishlar yuz bermoqda. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ham, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ham darslarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish bot-bot aytilmoqda. Avvalo, innovatsion texnologiyaning o'zi nima degan savol tug'iladi. Innovatsiya (inglizcha innovation)- yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Buyuk islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda ijodiy fikrlovchi yoshlarga bo'lgan talab davr taqozosidir. Chunki shaxsiy dunyoqarashga ega bo'lgan insonlarga jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muvaffaqiyatlarga erishishga qodir bo'ladilar. Respublikada olib borilayotgan davlat siyosatining bosh omillaridan biri ham ijodiy fikrlovchi, keng dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir. Bularni amalga oshirishda o'qituvchining darslar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida interfaol metodlardan unumli foydalana olishi ham muhim o'rin tutadi. Interfaol metodlardan amalda foydalanishda quyidagi asosiy xulosalarini hisobga olish lozim:

- o'quvchi o'zi o'rganishi kerak, aks holda unga hech kim hech narsani o'rgata olmaydi;
- o'qituvchi o'quvchilarga bilimlarni «kashf qilishga» yordam beradigan jarayonni tashkil qiladi ya'ni yapon xalq maqoli misolida olsak, o'qituvchi baliq tutib bermaydi, balki unga baliq tutishni o'rgatadi;
- bilim borliqdan ko'chirilgan nusxa emas, uni odam shakllantiradi kabilar.

Shuningdek o'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan -kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchini faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari izlab topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Yangi pedagogik texnologiyalarga bag'ishlangan adabiyotlar va maqolalarda bir qator oqitish usullari haqida soz yuritilmoqda. Bu usullar innovatsion metodlar sifatida taqdim etilmoqda. Shulardan ona tili darslarida bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashda foydalanish mumkin bolgan ayrim metodlar xususida so'z yuritimiz.

O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati bu darsni interfaol darsga aylantiradi. O'qitishning yangi interfaol shakllari – ta'lim-tarbiya masalalarini unumli yechishga, o'quvchilarning bilish faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llaridan biri. Xorijiy davlatlar sinovdan o'tgan bu metod ya'ni interfaol metodga ko'ra darslar bir necha bosqichga bo'linadi: Ular chaqiriq, aqliy hujum, anglash, fikrlash kabi bosqichlardir.

1. Chaqiriq bosqichi. Bu bosqichda o'quvchilarni faollashtirish, mavzuning mazmun – mohiyatiga kirib borish, uni his etish, anglab yetish jarayoniga tayyorlash kabi maqsadlar ko'zda tutiladi. Bunda o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob berish jarayonida o'quvchilar o'zaro fikr almashadi.

2. Aqliy hujum bosqichi. Bu usul darsning boshlanishida yoki istalgan joyida qo'llanishi mumkin bo'lib, u muamoni o'z g'oyalari, fikrlarini aytish yo'li bilan hal qilishdan iborat. Masalan, o'qituvchi sinf taxtasiga til so'zini yozadi va o'quvchilardan "Ushbu so'z sizlarda qanday tassavvur hosil qildi yoki shu so'zni yana qaday talqin qilsa bo'ladi?" – deb so'raydi.

O'qituvchi o'quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni sinf taxtasiga quyidagi tartibda yozib borishi mumkin: O'qituvchilarning fikrlari noto'g'ri deb topilmasligi lozim aksincha, o'qituvchi iloji boricha o'quvchilarga yordam berishi noto'g'ri fikr

aytib qo'yishdan cho'chimaslikka da'vat qilishi, oxirida esa bildirilgan fikrlarning har birini o'qituvchi tahlil qilib berishi kerak.

3. Anglash bosqichi. Bu bosqichda aqliy hujum bosqichidagi mavzuga oid bahsmunozara natijasida yuzaga kelgan xulosaviy fikrlar eshilib, o'qituvchi tomonidan yangi fikrlar bilan to'ldiriladi. Savol-javoblar orqali mavzu mustahkamlanadi.

Ta'limda innovatsion metodlarni qo'llashdan asosiy maqsad – o'qituvchining o'z pedagogik xazinasini qayta ko'rib chiqishiga yordamlashish, yanada yuqori sifatli metodik yo'nalishga intilishini hosil qilish, kelgusi o'ylar, izlanishlar, tajribalarga undashdir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi № 187-sonli Qarori.

3. U. Masharipova va b.q. Ona tili 4-sinf o'qituvchilari uchun ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish.

4. Броварский В. Д., Турдалиев А. Т., Мирзахмедова Г. И. Воздействие температуры окружающей среды на пчел и растения //Научное обозрение. Биологические науки. – 2020. – №. 3. – С. 43-48.

5. Турдалиев, А. Т., Аскарлов, К. А., Жалилова, Ш. А., Гуломова, З. А., & Мусаев, И. И. (2019). Физико-химические, геохимические особенности и их влияние на почвенно-экологическое состояние гидроморфных почв. Научное обозрение. Биологические науки, (4), 44-49.

6. Аскарлов К. А., Турдалиев А. Т., Сотиболдиева М. М. Геохимия микроэлементов в почвах Центральной Ферганы //Современные научные исследования и разработки. – 2018. – Т. 2. – №. 5. – С. 42-45.

7. Turdalievich T. A., Gulyam Y. Morphological features of pedolytical soils in Central Ferghana //European science review. – 2016. – №. 5-6. – С. 14-15.

8. Турдалиев А., Юлдашев Г. Геохимия педолитных почв. Монография //Т." Фан. – 2015. – С. 41-48.

9. Valijanovich M. O. et al. Biogeochemistry Properties of Calcisols and Capparis Spinosa L //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 3227-3235.

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	MODERN METHODS AND APPROACHES TO TEACHING SIMULTANEOUS TRANSLATION FOR TRANSLATION STUDENTS	3
2	TA'LIM MENEJMENTINI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	6
3	TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHDA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FANLARINING AHAMIYATI	9
4	USE OF MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ENGLISH TEACHING AND THEIR EFFECTS	12
5	INGLIZ TILINI O'RGANISHDA ASPEKTUAL MUNOSABATLARNI IFODA ETISH	17
6	ИНГЛИЗ ТИЛИДА КОМПОЗИЦИОНАЛЛИКНИНГ АСПЕКТУАЛ СЕМАНТИКАСИ	21
7	MUHAMMADJON XOLBEKOV TANIQLI TARJIMA NAZARIYOTCHISI	25
8	INGLIZ TILINI O'QITISHNING ZAMONAVIY MAQSADLARI VA TILNI O'RGANISH, O'QITISH USULLARI	28
9	THE SEASONAL EFFECTS OF GAMES IN A FOREIGN LANGUAGE TEACHING PROCESS	32
10	УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ РЫНОЧНЫХ ОТНОШЕНИЙ	35
11	MODERN METHODS AND APPROACHES TO TEACHING SIMULTANEOUS TRANSLATION FOR TRANSLATION STUDENTS	50
12	STATE TAX OF POLITICS MAIN DIRECTION MARKET RELATIONSHIPS DECISION TO FIND DIRECTED SERIES SCIENTIFIC BASED ON TAXES CURRENT REACH AND THAT'S IT THROUGH THERE IS TAX SYSTEM FUNDAMENTALLY AGAIN ORGANIZE REACH	54
13	MOLIYAVIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA QO'LLANILISHI	58
14	SUG'URTA KOMPANIYASI DAROMADLARI VA UNI AMALGA OSHIRISH YO'LLARI	63
15	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING ASOSIY HARAKAT MASHQLARI	71
16	FÊTE NATIONALE FRANÇAISE	76
17	PAST BOSIMLI YO'LDOSH GAZLARNI UTILIZATSIYA QILISH MASALALARNI TEJAMKORLIK BILAN AMALGA OSHIRISH	83
18	TARIX FANINI O'QITISHDA METODLAR VA INNOVATSION USULLAR	87
19	JISMONIY TARBIYA VA SPORT DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	90

20	BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARIDA INNOVATSION VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARASI	93
21	KASB-HUNARGA OID FRAZEALOGIK BIRLIKLARNING TURLARI VA USLUBIY XUSUSIYATLARI	96
22	THE DIFFICULTIES OF LITERARY TRANSLATION AND ITS MAIN PRINCIPLES	101
23	BIOLOGIYA FANINING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQADORLIGI	103
24	BOSHLANG'ICH SINFLARDA SAVOD O'RGATISH METODIKASINING O'QITILISHI	106
25	BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK USULLARNING SAMARADORLIGI	109
26	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI UCHUN DARS JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN USULLAR	112
27	FARZAND TARBIVASINING SHAKLLANISHIDA OTA-ONANING TUTGAN O'RNI	116
28	PAXTA TOZALASH KORXONALARIDA CHANG HAVODAN IFLOSLIKLARNI USHLAB QOLISH QURILMASINING SANOATDAGI O'RNI	120
29	SAID AHMADNING «SOBIQ» AHMAD A'ZAMNING « SOYASINI YO'QOTGAN ODAM» HIKOYALARI KOMPOZITSIYASI VA BADIY G'OYASI	123
30	AKA-UKA GRIMMLAR ASARLARIDA SENTIMENTALIZM	125
31	TILSHUNOSLIKDA TAQLID VA OLMOSHLARNING SO'Z TURKUMI SIFATIDAGI O'RNI	127
32	LEARNING FOREIGN LANGUAGES IS IMPORTANT	129
33	ART AS A COGNITIVE ACTIVITY IN THE LIFE OF CHILDREN	132
34	MOLIYAVIY HISOBOT VA UNDA XALQARO STANDARTLARNING TATBIQ ETILISHI	138
35	SOME ISSUES ABOUT FINANCIAL STATEMENT AND WAYS OF ITS IMPROVEMENT	142
36	OLIY TA'LIM TIZIMIDA MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI	145
37	IJTIMOY PSIXOLOGIYADA OMMAVIY MADANIYATNI YOSHLAR MILLIY QADRIYATLARIGA TA'SIRINI O'RGANISH MASALASI	148
38	TA'SIRLANGAN ICHAK SINDROMINI O'SMIRLAR ORASIDA O'RGANISH	151
39	BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR . YEVROPALIKLARNING DASTLABKI DENGIZ SAYOHATLARI. XRISTOFOR KOLUMB VA UNING SAFARLARI. AMERIKANING OCHILISHI	155
40	ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH	163

***Напоминание!** — Образование наука и инновационные идеи в мире || Авторы несут персональную ответственность за правильность цифр и данных в статьях и планах занятий, включенных в мировой научно-методический журнал, и за правильность приведенных цитат.*


**Главный редактор:
Семёнов Владимир Львович**

**Помощник редактора:
Абдурахманов Бобуржон**

**Подготовитель к публикации:
Халиков Тохирджон Шавкатжонович**

— Образование наука и инновационные идеи в мире всемирный научно-методический журнал, 2022-г.





OPEN  ACCESS

